

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ПЕДАГОГИКА ФАКУЛЬТЕТИ

г

“БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ” КАФЕДРАСИ

5141600-Бошланғич таълим ва спорт тарбиявий иш таълим йуналиши

4-курс 403-гуруҳи

ЧОРШАНБИЕВА ШАХЗОДА БОЙИТОВНА

ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИМЛОВИЙ БИЛИМЛАРИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕТОДЛАРИ

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Битирув малакавий иши раҳбари: _____ ўқ.Ш.Д.Турдиқулов

Термиз 2013

MUNDARIJA

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.	3
O`QUVCHILARNING IMLOVIY BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARINING ILMIY–NAZARIY ASOSLARI.....	8
O`quvchilar imlosiga qo`yilgan bilim, ko`nikma va malaka talablari.....	8
O`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an'anaviy va noan'anaviy usullari.....	12
IMLOVIY BILIMLARNI IMLOGA DOIR MASHQLAR VA MASHG`ULOTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	18
Ona tili darslarida o`quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish.....	18
Imloviy bilimlarni ta`limiy diktantlar va bayonlar vositasida takomillashtirish.....	23
Maxsus metodlar asosida imloviy bilimlarni tekshirish usullari.....	43
Interaktiv metodlar asosida imloga doir mashg`ulotlarni tashkil etish (3-sinf ona tili darslari misolida).....	56
Umumiy xulosalar	63
Foydalanilgan adabiyotlar.....	66

REJA:

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.

I.BOB. O`QUVCHILARNING IMLOVIY BILIMLARINI TAKOMILLASH-TIRISH METODLARINING ILMIY–NAZARIY ASOSLARI.

1.1. O`quvchilar imlosiga qo`yilgan bilim, ko`nikma va malaka talablari.

1.2. O`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an'anaviy va noan'anaviy usullari.

II.BOB. IMLOVIY BILIMLARNI IMLOGA DOIR MASHQLAR VA MASHG`ULOTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.

2.1. Ona tili darslarida o`quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish.

2.2. Imloviy bilimlarni ta'limiy diktantlar va bayonlar vositasida takomillashtirish.

2.3. Maxsus metodlar asosida imloviy bilimlarni tekshirish usullari.

2.4. Interaktiv metodlar asosida imloga doir mashg`ulotlarni tashkil etish (3-sinf ona tili darslari misolida).

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya jarayoni tubdan o'zgardi. Bu jarayon o'z navbatida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy – tarbiyaviy asoslarini yaratishdan boshlandi. Ta'lim – tarbiyani milliy istiqloq g'oyalari asosida yuksak darajaga ko'tarish davlatimizning qat'iy talabi va jamiyatning ijtimoiy asosiga aylandi.

1997-yil 29–avgustda Oliy majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Kelajagi buyuk davlat barpo etish, avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qoldirish borasidagi olijanob ishlar taqdiri, oxir-oqibatda yoshlarning ilm-fan yutuqlari va zamonaviy bilimlarni nechog'lik mukammal egallashga bog'liq. Binobarin, barkamol avlodni tarbiyalash, ularga zamon talablari darajasida bilim berish O'zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning eng muhim shartidir.

Mamlakatimizda qabul qilingan “2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy Davlat dasturi to'g'risida”gi Qaror ijrosi asosida mamlakatimizdagi barcha maktablar zamonaviy o'qitish uchun mo'ljallangan shart- sharoitlarga ega bo'ldi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, qisqa vaqt ichida Vatan ravnaqi uchun bir qator buyuk ishlar qilind va qilinmoqda, lekin oldimizda undanda yuksakroq vazifalar turibdi.

Bugun qilayotgan yaxshi ishlarimiz kelgusi avlod barkamolligi uchun xizmat qilishi shubhasiz. Bugun qanday ko'chat eksak, ertaga shunday meva olamiz.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy an'analarimizni singdirish, xalqimizning ko'p asrlar mobaynida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldida turgan maqsad va vazifalarni singdirish;

- jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo'lgan hurfikrlilikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asrydigan el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yangi g'oya, milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

- yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash eng muhim dolzarb vazifadir.

Davlatimiz rahbari aytganlaridek, ta'lim tarbiya sohasidagi islohotlar:

Birinchidan, ijtimoiy - iqtisoiy ta'limga ijobiy ta'sir ko'rsatishga;

Ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

Uchinchidan, mustaqil fikrlari teran shaxsni shakllantirishga;

To'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgandir.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'liq joriy qilish to'grisida ko'plab fikrlar bayon etilmoqda.

Bugungi kunda xalq ta'limi hodimi oldida turgan eng muhim masala bu— yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun salohiyatli, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o'zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Yurtboshimiz alohida ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan

ekanmiz bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi".¹

Zero, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o'quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo'ladigan ona tili ta'limida o'quvchi o'z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo'lishi va to'g'ri savodli yoza oladigan bolishi kerak. Shu jihatdan, boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko'ra, ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Ta'limning takomillashgan turlaridan foydalanish har jihatdan xususan, ona tili darslarida ham o'ta dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti.

Umumiy o'ta ta'lim maktablarida keng qo'llanilayotgan eng samarali metodlar asosida darslarni tashkil qilish, noan'anaviy usullardan o'rinli foydalanish metodlarini ishlab chiqish va uni hayotda tadbiiq etishdir. Vaholanki, boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish va mustahkamlashda turli-tuman qiziqarli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilar faolligini ta'minlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida imloviy bilimlarni yanada takomillashtirish uchun har jihatdan samarali bo'lgan dars uslublarini ishlab chiqish, tajriba –sinov darsida ko'proq samarali deb baholangan usullarni tadbiiq qilish mazkur ish alohida alohida turgan eng muhim maqsaddir.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2011.

Bunday usullar jumlasiga grammatik o`yinlar, testlar, diktant turlari, boshqotirmalar mansub bo`lib, ulardan ona tili darslari uchun maqsadga muvofiqlarini tanlab olish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 3-sinf o`quvchilari uchun tushunarli bo`lgan materiallar asosida imloviy bilimlarni takomillashtirish samarali deb topilgan uslublarni to`pladik va bu usullarni dars jarayonida qo`llash metodikasini bayon qildik.

Ishda qo`llaniladigan metodlar.

Mazkur ishni yozish jarayonida o`qitishning umumdidaktik tamoyillari asosida qo`llaniladigan metodlardan foydalandik:

- dastlab o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib adabiyotlar bilan ishlash metodidan;
- o`quvchilarning qiziqish va istaklarini hisobga olib suhbat metodidan;
- o`quvchilarning o`zlashtira olish qobiliyatiga mos ravishda ta'lim texnologiyalaridan hamda didaktik o`yinlardan;
- ona tili ta'limida muhim bo`lgan mammoli ta'lim metodidan;
- shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiya usuli hisoblanmish interfaol metodlardan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

BMI ning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning xulosalaridan umumiy o`rta ta'lim maktablarining boshlang`ich sinf o`qituvchilari dars iishlanma tuzishlari uchun, oliy o`quv yurti talabalari kurs ishlari tayyorlashda, ma'ruza matnlari tuzish kabilarda foydalanishlari mumkin.

Ushbi BMIda yil davomida olib borilgan pedagogik amaliyot natijalaridan, Termiz shahridagi 11-umumiy o`rta ta'lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchilarining uzoq yillik ish tajribalaridan, markaziy metodik jurnal va gazeta materiallardan, ilmiy-amaliy konferensiy maqola va tezislaridan unumli

foydalandik. Bitiruv malakaviy ishida, shuningdek, internet sahifalarida e`lon qilinayotgan yangiliklardan ham imkon qadar foydalandik.

Ishning tuzilishi va hajmi.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, bitiruv malakaviy ishining predmeti va ob`ekti, ishda qo`llanilgan metodlar, amaliy ahamiyati haqidagi fikrlar bayon qilingan. BMTning birinchi bobi “O`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish metodlarining ilmiy – nazariy asoslari” deb ataladi va unda amaldagi DTSiga ko`ra o`quvchilar imlosiga qo`yilgan bilim, ko`nikma va malaka talablari, o`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an`anaviy va noan`anaviy usullari kabi masalalar o`z ifodasini topgan. Ishning ikkinchi bobi “Imloviy bilimlarni imloga doir mashqlar va mashg`ulotlar asosida takomillashtirish”ga qaratilgan bo`lib, ona tili darslarida o`quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish, imloviy bilimlarni ta`limiy diktantlar va bayonlar vositasida takomillashtirish, interaktiv metodlar asosida imloga doir mashg`ulotlarni tashkil etish (3-sinf ona tili darslari misolida) kabi masalalar o`z ifodasini topgan. Ishning xulosa va tavsiyalar qismida ona tili darslarida o`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish, yo`l quyilgan xato va kamchiliklarga doir bilim, ko`nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berildi.

I.BOB. O`QUVCHILARNING IMLOVIY BILIMNLARINI TAKOMILLASHTIRISH ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. O`quvchilarning imlosiga qo`yilgan bilim ko`nikma va malaka talablari.

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o`ziga xos yo`liga ega bo`ldi. Mustaqillik omili ta`lim sohasini ham tubdab yangilash zaruratini vujudga keltiradi. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta`limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi 1- darajali ehtiyojga aylandi.

“Ta`lim to`g`risida” gi qonunning “Davlat talim standartlari” to`g`risidagi 7- moddasida belgilab berilganidek, “Davlat talim standartlari umumiy o`rta, o`rta maxsus kasb- hunar va oliy ta`lim mazmuniga hamda sifatiga qo`yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat talim standartlarini bajarish O`zbekiston Respublikasining barcha ta`lim muassasalari uchun majburiydir.

“O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim to`g`risida” gi Nizomda ta`kidlanganidek: “Boshlang`ich ta`lim o`qish, yozish, sanash, o`quv faoliyatining asosiy malaka va ko`nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o`zini o`zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog`lom turmush tarsi asoslari egallab olinishini ta`minlashga da`vat etilgan”. Shu asosga ko`ra, boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning umumadaniy va axloqiy ko`nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirilishi lozim. Boshlang`ich ta`lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini kommunikativ savodxonligini va o`z-o`zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog`lom bo`lishga, moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zallik va nafosatda zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o`ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o`rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarining bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalgam oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilga minimal ko'rsatgichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlanadi.

Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari taqazo qilinadigan ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning egallagan ko'nikma va malakalarni baholash me'zonlarini belgilashga imkon beradi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ayni shu boshlang'ich sinf o'quvchilarini ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan ta'lim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi. Boshlang'ich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi ko'zda tutilgan mazmuni, shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, texnologik tizimi va darajasi belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga butun e'tibor qartiladi.

Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivajlanib boruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanib, jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'lim sohaları kiritiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tilini o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili dasturi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish, nutq o'stirish.
2. Sinfda va sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish.
3. Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish.

Boshlang'ich sinflarni ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik–semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalarini va tinish bekgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang–barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bimalol erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

Ona tili darslarida o'quvchilar mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun ushbu dastur va u asosida yaratilajak darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olinadi.

Ona tili ta'limi oldidan quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vazuyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Savod o'rgatish, sinfdan tashqari o'qish va imlo qoidalarini o'rgatiladi. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish,

o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ba'yon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'lim standarti ko'rsatkichlari bolani fikrlay olishi, ifodalangan fikrni anglash va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrlil standart mezonlari orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrlarda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va hokazo);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.

Imlo o'rgatish metodlari. O'zbek maktablari tajribasida imlo o'rgatishning qator metodlari ishlab chiqilgan.

Ko'chirib yozish–imlo o'qitishning alohida metodi bo'lib, buning bir qancha ko'rinishlari mavjud: sidirg'asiga ko'chirib yozish – matn qanday bo'lsa, o'z holicha, biror narsa qo'shmay va tushurib qoldirmay yozib olish demak; o'zgartirib ko'chirib yozish – nuqtalar o'rniga ko'plik (-lar), egalik (-im, -ing, -i), kelishik (-ning, -ni, -ga, -da, -dan) qo'shimchalaridan mosini kiritib, gaplarni yoza olish; ijodiy vazifaliko'chirib yozish – matnga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'zgartirishlar kiritib yozish. Masalan, “Undalma” mavzusi o'tilayotgan

paytdaaytilgan yoki berilgan matnga undalmalar kiritib yozish ijodiy vazifali ko'chirib yozishdir.

Izohli yozuv – imlo o'rgatishning bu usuli ona tili didaktikasiga o'tgan XX asrning 60 – yillarida lipetsklik o'qituvchilar tajribasida kirib kelgan edi. Izohli yozuv bu mustahkamlanayotgan orfogrammani ovoz chiqarib izohlay turib yozish demakdir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar imlo va uni o'zlashtirish borasida zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim. Xususan, biz o'rganayotgan 3– sinf ona tili darslarida o'quvchilarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka talblari quyidagicha:

Bilim: gap, darak gap, so'roq gap, buyruq gap; gap bo'laklari, bosh bo'laklar; ega va kesim; ikkinchi darajali bo'laklar, so'z tarkibi; o'zak, o'zakdosh so'zlar; qo'shimcha: so'z yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha; so'z turkumlari: ot, sifat, son, fe'l; otlarda birlik va ko'plik; sifatning ma'no turlari; sanoq sonlar va tartib sonlar; fe'l, bo'lishli va bo'lishsiz fe'l.

Ko'nikma: So'z va iboralarni to'g'ri yoza olish; gaplarni ifoda mazmuniga ko'ra farqlay bilish; gaplarni ohangga rioya qilib o'qiy olish; gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini ajrata olish: gapni ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib kengaytira olish; gapda so'zlarni o'rinli qo'llay bilish; matnda so'zlarni takrorlashdan saqlanish va sinonimlarni qo'llay olish;

diktant turlari: ta'limiy diktant va nazorat diktantini farqlay olish; ma'nodosh, qarama – qarshi ma'noli, shakldosh so'zlar guruhini tuza bilish; xabarnoma, xat, alifbo tartibida ro'yxat tuza bilish.

Malaka. 50 – 60 so'zdan iborat diktantni matn asosida to'g'ri yozish; xabar, tasvir, ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilish; diktant turlarini farqlay olish, saylanma diktant, lug'at diktant, ta'kidiy diktant, yoddan yozuv diktanti, nazorat diktanti, izohli diktant, ko'rsatish diktantlarini yozish, tahrir qilish, tabriklash kabi nutq madaniyatiga doir murojaat qoidalariga rioya qilish.

1.2. O`quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an`anaviy uslublari.

Boshlang'ich maktabning muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Shubhasiz, hamma fanlar o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga, imlodan savodxonligini oshirish va nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tilini muvaffaqiyatli o'qitishning muhim sharti ta'limni o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan, ularning bevosita ko'rganlari, kitoblardan o'qib bilganlari bilan bog'lash hisoblanadi.

Ma'lumki, o'qish darsliklaridagi matnlar turli manbalardan olinganligi aniq. Ona tili darsini o'qish bilan bog'lansa, o'quvchilarning o'qish darsida o'qiganlari asosida olgan haqiqiy bilimlaridan foydalanishga imkon yaratiladi.

Buning uchun o'quvchilarga mamlakatimizda, maktabda, oilada sodir bo'lgan qiziq voqea-hodisalar haqida, tabiatdagi o'zgarishlar haqida o'qiganlaridan foydalanib gap tuzish, ayrim parchalarni kitobdan ko'chirib yozish, grammatik tahlil kabi topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. Shuni ham aytib o'tish lozimki, ona tili darsida o'qishdan beriladigan topshiriq o'ylanmasdan, puxta tayyorgarlik ko'rilmay, mavzuga moslamay berilsa, yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Ona tilidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun:

birinchidan, ona tili darsida o'qishdan beriladigan topshiriq oldindan tayyorgarlik ko'rib, puxta o'ylab, so'ng berilishi;

ikkinchidan, ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlashga imkon berishi hisobga olinishi;

uchinchidan, topshiriq (misol qaysi asardan olingan bo'lsa) berilgan asar g'oyasini yana ham mustahkamlashga yorlashishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, grammatik bilim tilni ongli egallashni va savodli yozish malakasini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning grammatikadan olgan bilimlari to'g'ri yozuv malakalarini shakllantirish bilan

birga olib boriladi.

To'g'ri yozuv malakasini rivojlantirishda imloviy mashq turlari: grammatik imloviy tahlil, matnni ko'chirib yozish, ta'limiy diktant va bayondan mashq sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Imloviy mashqlarni amalga oshirishda ona tili darsligi sahifalarida berilgan mashqlardan foydalanish bilan birga boshqa materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki o'quvchilar yangi materialga qiziqish bilan kirishadilar, o'ylashga, fikrlashga harakat qiladilar.

2-sinfda "Kishilarning ismi va familiyasida bosh harf" mavzusini o'tishda "O'qish kitobi"dan samarali foydalangan holda o'rgatish mumkin. Mavzuni mustahkamlashda mashqlardan birini ko'chirib yozish topshirig'i berilganda, masalan, "Inoqlikda gap katta" she'rining to'rtta:

- Bizlar yetti og'ayni: Men, Anvar, Ramz, G'ani, Tolib, Uchqun va Quvnoq,
- O'ynaymiz ahil, inoq. - satrini o'qib, faqat kishilarning **isini xato qilmay, chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilib ko'chirib yozish topshiriladi. Topshiriq bajarilgach (ishni tekshirish uchun yig'ib olish mumkin), uch-to'rt o'quvchining ishi o'qitilib, tahlil qilinadi.**

- Kishilarning ismi qanday harf bilan yoziladi? Ularga qanday so'roq beriladi? savollariga javob olinadi. To'g'ri javob bergan, xatosiz, chiroyli yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Shuningdek, "Ular qanday bolalar ekan?" "Sizlar-chi?" savollariga javob olinib, tarbiyaviy tomoni ham yoritiladi.

3-sinfda "Bo'g'in" mavzusi takrorlanganda, "O'qish kitobi"dan imlosi va o'qilishi (talaffuzi) qiyin so'zlar uchraydigan gaplar tanlab olinib, ularni doskaga yozib, awal bo'g'inga bo'linmaydigan, so'ng bo'g'inga bo'linadigan so'zlarni yozib, awal bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qish mashq qilinsa, o'qilishi va yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni to'g'ri o'qishni, to'g'ri yozishni bilib oladilar.

Masalan, **"Shayx Mazididdin ot choptirish, qilich urishtirish, zarb berish bo'yicha ko'rikdan o'tishga shoshilardi"** gapi sinf yozuv taxtasiga yoziladi. So'ng yozilgan gapdan awal bo'g'inga bo'linmayc gan, so'ng bo'g'inga bo'linadigar so'zlarni tanlab yozish topshiriladi, O'quvchilar "Shayx, ot, zarb" so'zlarini

yozadilar. Topshiriq bajarilgach, o'quvchilardan: "**Shayx, ot, zarb bir bo'g'inli so'z. Chunki uiarda bitta unli bor**", degan javob olinadi va shu so'zlarni to'g'ri o'qish -mashq qilinadi. Shundan so'ng Mazididdin so'zini bo'g'inga bo'lib yozish topshiriladi: "**Ma-zi-did-din**" va yozilgan so'zni avval bo'g'inlab, so'ng sidirg'a o'qish mashq qilinadi. Shunda o'quvchilar **Shayx, zarb, Mazididdin** so'zlarini to'g'ri o'qiydigan va yozadigan bo'ladilar. Bu ish ona tili o'qitish samaradorligini oshiradi.

"Son' mavzusi o'rganilganda o'quvchilarga 3-sinf "O'qish kitobi" da berilgan "Bayramingiz qutlug' bo'lsin!" matnidan sonlarni tanlab yozing" topshirig'i beriladi. O'quvchila 1991 yilning 31 avgusti va 1991 yi . rinchi sentabr" so'zlarini ko'chirib yozadilar. Topshiriq bajarilgach oz' gan so'zlar qaysi so'z turkumi ekanilgi, uning turlari, so'roqlari, yozilishi so'rab aniqlanadi. Bu bilan o'quvchilar "**Son**" mavzusini o'qib-o'rgangan hayotiy misollardan foydaianib, o'zlashtiradilar. O'qituvchi esa o'quvchilarning "Son" mavzusini o'zlashtirib olganliklari haqida ishonch hosil qiladi. Shuningdek, "Jigarlarga tilaklarim" she'ridan "Son"ga misollar topib yozing, ularga qanday so'roq berilishini, turini ayting" topshirig'i berilib, o'quvchilardan quyidagicha javob olinishi mumkin:

Bir, ikki, uch so'zlarini yozdik. Ularga qancha? so'rog'i beriladi. Bular sanoq son.

Rasmlı diktant o'tkazish uchun "**Do'stlar**" matniga mos berilgan rasmdan foydalanish mumkin. Buning uchun quyidagicha topshiriq beriladi.

- Rasmda nimalarni ko'rayapsiz? Ular nomini yozing. "Yozgan so'zlaringizni (*Qarg'a, Sichqon, Toshbaqa, Ohu, ovchi*) matndan tekshiring va to'g'ri yozilishini bilib oling". Ishning bajarilishi tekshiriladi.

Izohli yozuv o'tkazilganda "Ibn Sino shogirdlari" matnidan tubandagi parcha asqotishi mumkin.

"Ibn Sino qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarning biri tozalik, ikkinchisi - parhezdir. Uchinchisi badantarbiyadir va qolgan ikkitasi mijoz bilan kayfiyatdir". So'zni bir vaqtda hamma yozadi. O'qituvchi o'quvchining izohini kuzatib, lozim

bo'lsa, zarur tuzatishlar kiritadi, ta-bib-lar-ning, ik-kin-chi- si, par-hezdir, kay-fi-yat, mi-joz so'zlarini bo'g'inlab aytib yozdiradi. (Bu tanlab izohlashdir).

Lug'at diktant o'tkazishda bog'lanishli matn yoki gaplar emas, balki o'rganishgan ayrim imlosi qiyin so'zlar aytib turib yozdiriladi va lug'atdan tekshiriladi.

Shu o'rinda aytmoqchimizki, ayrim so'zlarning o'zbekcha atamasi bo'lishiga qaramay, hamon bolalar nutqida *sekretar, buxgalter, zvonok, koridor, spravka, ostanovka, baza, kassir, kassa* kabi so'zlarni uchratamiz. Shu so'zlarning o'zbekcha atamalarini *kotiba, hisobchi, qo'ng'iroq, yo'lak, ma'lumotnoma, bekat, omborxona, xazinachi* deb yozilishi va qo'llanilishini o'rgatish zarurligini hisobga olib, lug'at-diktant yozdirish zarur. Chunki yuqorida tilga olingan ruscha so'zlarning o'zbekcha atamasini boshlang'ich sinfdanoq o'rgatish lozimdir. Shunday qilinsa, o'quvchilarning so'z boyligi ortadi, tilning sofliğiga ham erishiladi.

4-sinfda **"Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi"** mavzusi o'rganilganda darsni mustahkamlash maqsadida saylanma diktant o'tkazilib, "O'qish kitobi" dan olingan quyidagi matn: Qanaqasiga sening iting bo'larkan? - dedi Samad.

Bizning To'rtko'z bu! Rasul ostonaga yaqin joyda xumday boshini oyoqlariga qo'yib yotgan itiga g'amgin tikildi. Itining holiga achindi. Lekin sir boy bermay, chegarachilarga imo qildi". (Ona tili. 21-bet, 2003-yil) - o'qib, tahlil qilinib, "Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi" bo'yicha matndan qaratqich, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalari bilan turlangan otlar tanlab yoziladi va kelishik qo'shimchalariga tegishli belgi qo'ydiriladi. O'quvchilar *ostonaga, joyda, boshini, ustiga, bermaslikka* so'zlarini yozib, qo'shimchalar ustiga tegishli belgi qo'yadilar.

Agarda, o'quvchilarda sening, bizning so'zlarini yozib qo'yish hollari uchrasa, o'qituvchi alohida vaqt ajratib, shu o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlab "Olmosh" va "Ot"ning farqini tushuntiradi.

"Gapning uyushiq bo'laklari" mavzusi o'tilganda mavzuni mustahkamlash

maqsadida 4-sinf "O'qish kitobi"dan "Oltin fasl" ("O'qituvchi", 2002-yil, 26-bet) matnida: "Uyushiq bo'laklar qatnashgan gap topib yozing va o'qilishini, yozilishini tushuntirib bering", topshirig'i beriladi. O'quvchilardan quyidagi misolni yozishlari kutiladi. - "Issiqsevar qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, ko'kqarg'alar birinchi bo'lib uchib ketishadi - O'quvchilar gapdagi uyushiq bo'laklar - *qaldirg'ochlar, uzunqanotlar ko'kqarg'alar* ni o'qiydilar, ular sanash ohangi bilan bog'langan. Ular orasiga yozuvda vergul qo'yiladi, degan javobni beradilar. Boshqa bir o'quvchidan "*Ona suti*" (O'sha kitob, 248-bet) matnidan uyushiq bo'laklar qatnashgan gap topib yozish va qanday bo'lak uyushganini aytib berish talab qilinadi.

O'quvchilarning "Bolaning ichi, ko'zi, tishi, qulog'i og'ribdi" yoki "Bolaning ichi, ko'zi, qulog'i tuzalibdi" gaplarini yozishlari so'raladi. O'quvchilar gapdagi *ichi, ko'zi, tishi, qulog'i* so'zlarini o'qib, ular gapning egasi bo'lib uyushib kelganligini, ular birdan ortiq bo'lib, bir xil so'roqqa javob bo'layotganini va bir kesimga bog'langanini tushuntiradilar.

Demak, boshlang'ich sinf ona tili darslarini o'qish faniga bog'lab olib borishda yuqoridagi usullardan foydalanish ona tili darslarining samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning so'z boyligi ortadi, ayniqsa, yozma savodxonligi rivojlanadi.

RSLARIDA O`QUVCHILARNING IMLOVIY SAVOXONLIGINI OSHIRISH USULLARI.

2.1. Imloviy bilimlarni imloga doir mashqlar va mashg`ulotlar asosida takomillashtirish.

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv - maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshi-lanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikr-lash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchiin taqqoslash

usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik gu-nihlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoi-dasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina ernas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar gumhini yozish imkonini yaratadi.

Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida biriashgan so'zlarning yozilishini bir xilashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasalishiga oid material-larni ma'lum darajada bilmasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot“, „Sifat“, „Son“, „Kishilik olmoshlari“, „Fe'l“ mavzulari ichiga kiritil-gan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika bilan orfografiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishni ta'minlaydi.

Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so'ng o'rganiladi. Masalan, otlarning keiishiklar bilan turlanishi o'rganilgach, kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqidagi ko'nikma shakllantiri-ladi. „Sifat“ mavzusini o'rganish -roq qo'shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, „Fe'l“ mavzusini o'rganish bo'lishsizlik (-ma) va o'tgan zamon (-di) qo'shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o'rgatishga bunday

yondashish boshiang'ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o'rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash — murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o'quvchilarning qoida ifodasini o'rganib olishlari, qoidani yozuv tajribasiga tatbiq etish lining asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida mohiyatini ochish qoida so'zning qaysi qismini, qaysi so'z turkumi yoki grammatik shaklni yozishni boshqarishini, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. O'quvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda o'qituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo'yicha ishlanadi. Bunda o'quv-chilarning qoida tarkibini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo'linadi (Aslida o'quvchilar bu vazifani mashq jarayonidavoq bajarib qo'yadilar). O'quvchilar o'rganilgan qoidaga misoUrytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yoi bilan uni yangi til materialiga, ya'ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo'lishsizlik qo'shimchasi *(-ma)* ning yozilishini deduktiv yo'l bilan o'rgatish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *(-ga)* ning oxiri *-k* bilan tugagan otlarga *-ka*, *-q* bilan tugagan otlarga *-qa* shaklida qo'shilishi haqidagi qoidani indukiv yo'l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o'zlashtiradilar. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkum-larini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faol-ligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko'rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga, darslikdan foyda-lanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin.

Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishini o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavurning mav-judligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Imloga oid mashqlar. Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlar-ga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir. Boshlang'ich sinflarda husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib yozuv ko'nikmasi

shakllantirilishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilarda ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Ko'chirib yozishdan oldin ko'chirib yozadiganingni yaxlit o'qib chiq.
2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrat va ichda bo'g'inlab aytib, yoz.
3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir va xatolarini to'g'rila.

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va kichik matnlardan foydalaniladi.

O'qituvchining qo'ygan maqsadiga bog'liq holda ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'zning nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlar-dan foydalaniladi. Bu ko'nikma qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishni yaxshi bilib olish imkonini beradi. Chunki vazifaning xarakteri imloviy malakani shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misol qilib quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ko'chirish. O'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zakni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanini aytish; yozilishini tushuntirish.
3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlardan topib qo'yib

ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.

4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.

5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.

6. Tanlab ko'chirish (Berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumini; ot va fe'ldan yoki ot va otdan, sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarini ko'chirish).

2.2. Imloviy bilimlarni ta'limiy diktantlar va bayonlar vositasida takomillashtirish

Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jara-yonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklarga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang'ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo'lishi. Unda ko'chirma gaplar, undalmali, kirish so'zli, ajratilgan bo'lakli gaplar, qo'shma gap bo'lmasligi lozim.
2. Matn hajmi 1—4-sinf o'quvchilarining o'qish sur'tiga asoslangan bo'lishi.
3. Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog'liq bo'lishi.
4. Diktant matni o'quvchilarga u yoki bu haqda bilim berishi.
5. Tanlangan matn g'oyaviy-badiiy jihatdan yiiksak bo'lishi, bolalar hissiyotiga ta'sir qilishi.
6. Matn tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi.
7. Matnda o'rganilayotgan hodisa kamida 5—6 marta uchrashi.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Ta'limiy diktantlar — bilim berishga yo'naltirilgan diktantlar.

2. **Tekshiruv diktantlari** — o'quvchilarning bilim, ko'nikma va ma-lakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rnini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5—10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga a'xsat beradi. Har qanday yo'l bilan xatoning oldini olish chorasini ko'riladi. Masalan, 1-sinfda **a** va **o** unlilari o'rganilayotgan darsda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili o'tkaziladi. Baho, bahor so'zlarining birinchi bo'g'inida **a** harfi yozilishini o'quvchilar bilib olgach, o'quvchilardan biri shu so'zlarni xattaxtaga yozadi. So'ng so'z o'chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta'limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Ta'kidiy diktant.
2. O'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.
6. Rasm diktant.
7. Lug'at diktant.
8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlash-tirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak

oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5—6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan

xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani amaliyotga tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydilar (ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, „Kitob — bilim manbai" — Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida k, i; ikkinchi bo'g'inida t, o, **b** tovushlari bor. Oxirgi **b** tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda **b** yoki p tovushini ifodalovchi harming yozilishini tekshirib aniq-laymiz. Buning uchun so'z oxiriga **i** tovushini qo'shamiz va aytamiz: **kitobi**. **B** tovushi yozilar ekan" kabi izohlanadi.

Bu diktantda o'quvchilar qoidalarga oid so'zlarning tagiga chizadilar.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o'qituvchining topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarini) yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so'zlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so'zni ubog'langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so'zni u

bog'langan fe'l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o'quvchilarda imloviy ziyrak-likni o'stiradi.

Erkin diktantda o'quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O'qituvchi awal matnni bir marta ifodali o'qib beradi, so'ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o'qib beriladi, o'quvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmetrasmiko'rsatiladi, o'quvchilaruningnorniniaytadilarvayozib vergul qo'yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko'zda tutiladi.

O'qituvchi mazkur maqsaddan kelib chiqib, imloviy malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktant-ning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Tekshiruv diktanti o'quv dasturining biror bo'li-mi o'rganilib, xilma-xil ta'limiy mashqlar bilan mustah-kamlangach, ular o'quvchilar tomonidan .qay darajada o'ziashtirilganini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshiruv diktanti uchun sintaktik tuzilishi jihatidan shu sinf o'quvchiiari saviyasiga mos, o'rganilgan imlo qoidalari asosida yoziladigan so'zlar va tinish belgilari ko'proq qo'llanilgan matn tanlanadi. Matnda o'rganilmagan qoida asosida yoziladigan va imlosi qiyin so'zlar bo'lmasligi kerak.

Tekshiruv diktanti uchun matnlardangina emas, balki o'rganilgan qoidalarni o'z ichiga olgan alohida terma gaplardan ham foydalanish mumkin. Lekin har ikki

holda ham gaplardagi so'zlar soni DTS talablariga mos bo'lishiga e'tibor berish lozim.

Tekshiruv diktanti uchun tanlangan matnda so'zlar soni DTSGa ko'ra quyidagicha bo'lishi lozim: 1-sinfga sabod o'rgatish davridan so'ng 8—10 so'z, o'quv yili oxirida 15—20 ta so'z, 2-sinf o'quv yilining birinchi yarmida 20-25 ta so'z, o'quv yili oxirida 30—40 ta so'z; 3-sinf o'quv yilining birinchi yarmida 14—16 ta so'z, o'quv yili oxirida 50—60 ta so'z; 4-sinf o'quv yilining birinchi yarmi oxirida 30—40 ta so'z; o'quv yili oxirida 75—80 ta so'z,

Ko'rinib turibdiki, o'quv yili oxirida o'tkaziladigan diktantdagi so'zlar soni keying! o'quv yili boshida o'tkazila-digan diktantdagi so'zlar soniga teng bo'ladi va asta-sekin ortib boradi.

O'qituvchi o'rganilgan va mashqlar bilan mustahkam-langan mavzuga mos matnni diktant o'tkazishdan bir necha kun oldin tanlaydi. Matnda shu sinf o'quvchilari uchun imlosi qiyin so'z boisa (yaxshisi matnda o'rganilmagan so'zlar bo'lmagani ma'qul), shu so'zlarning ma'nosi, talaffuzi va yozilishi diktantni yozgunga qadar bo'ladigan ona tili darslarida tushuntirilib, mashqlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shuning uchun imlosi qiyin so'zni qatnashtirib gap tuzish, so'zning talaffuzi va yozilishini tushuntirish, imlosi

O'qituvchi matndagi ma'nosi yoki imlosi qiyin so'zlarni doskaga yozib, talaffuzi va imlosini qisqa izohlaydi. Keyin o'qituvchi doskaga, o'quvchilar esa daftarlariga Sana, ish turi (tekshiruv diktanti) va sarlavhani tartib hi Ian, har birini xat-boshidan yozadilar. Shundan so'ng matn aytib yozdiriladi. O'qituvchi sodda yig'iq gaplarni biilunicha, sodda yoyiq gaplarni so'z birikmasiga va qo'sjima hamda sodda gaplarni ma'noli qismlarga bo'lib aytib luiadi. Shuni ta'kidlash zarurki, so'/.ni bo'g'inlab yoki so'zrna-so'z aytish yaramaydi. Har bir gap yoki SO'z blrikmasi ko'pi bilan uch marta takrorlanishi lozim. Aytish sur'ati shu sinf o'quvchilarining gaplarni yozib ulgurishlarini hisobga olinishi kerak. Tekshiruv diktanti yozib bo'lingach, o'quvchilar diqqatini jalb etib, o'qituvchi matnni sekinroq sur'at bilan yan'a bir marta o'qib beradi. O'quvchilar o'z yozuvlarini mustaqil ravishda

tekshirishlari uchun matn o'qib bo'lingach, biroz muddat (ikki-uch daqiqa) beriladi. Bu vaqt ichida o'quvchilar o'z ishlarini tekshiradilar, xatolarini topsalar, to'g'rileydilar. O'qituvchi esa o'quvchilarning har birini diqqat bilan kuzatib, ular e'tiborining bo'linmas-ligiga ahamiyat beradi.

O'quvchilar o'rtoqlarining ishini ko'rishga, u yoki bu so'zni qanday yozganlarini bilishga qiziqadilar, ba'zan o'rtog'ining ishini ko'rib, o'zining to'g'ri yozgan so'zini o'zgartirishga urinish hollari ham uchraydi. Bunday paytlarda o'qituvchi bolalarga mustaqil ishlash, fikrlash lozimligini eslatadi.

O'quvchilar imlo va tinish belgilarga oid qoidalarini qay darajada o'zlashtirganliklarini, ulardan amaliy foydalana olishlarini, ko'nikmalarini sinash bilan birga, grammatik mavzularni ongli o'zlashtirishlarini tekshirish maqsadida boshlang'ich sinflarda grammatik topshiriqli tekshirish diktanti ham o'tkaziladi. Grammatik topshiriq darsdan oldin doskaga yozilib, parda bilan to'sib qo'yiladi (ko'chma doska yoki katta qog'ozga yozib foydalansa ham bo'iadi). O'quvchilar tekshirish diktanti matnini yozib bo'lgach, o'rganilgan mavzular yuzasidan berilgan grammatik topshiriqlarni bajaradilar. Grammatik topshiriqlar quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin: biror gapda qatnashgan so'zlardagi unli yoki undosh harflarning tagiga chizish; berilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga ajratib, chiziqcha bilan yozish; talaffuzida va yozilishida farq qilgan undoshlarni aniqlab, tagiga chizish; talaffuzda lushib qoladigan undoshnihg tagiga chizish; gaplarning (ular aniq ko'rsatiladi) ega va kesimini aniqlab, eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizish; biror gapdagi so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini aniqlab, chiziqlar bilan belgilab ko'rsatish. (Masalan, *ishla*: o'zak Bu matnlarni eshitib yozish orqali ulardi mas'uliyatni his va idrok etish uquvi paydo bo'ladi. Muslqa orqali ta'sir etish uchun diktant yozish paytida mayin kuy eshittirish, diktant yozish oralig'ida jismoniy harakatlar bajarib, dam olish daqiqasini o'tkazish, tasviriy san'at, badiiy mehnat, matematika fanlari bilan ham bog'lanish o'quvchilar savodxonligini, estetik didini o'stirishga yordam beradi. .

Diktantni tekshirish va tahlil qilish O'quvchilarga diktant yozdirilganidan keyin uni tekshirish, baholash va navbatdagi yozuv darsida uni tahlil qilish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki o'quvchilar diktantni yozganlaridan keyin yo'l qo'ygan kamchiliklarini va olgan baholarini bilishga qiziqadilar. Tekshirilgan diktantni belgilangan vaqtda tahlil qilish bilan o'quvchilarning ana shu istaklari qondirishuli. Bundan tashqari, diktantda yoi qo'ygan xatolari takrorlanishining oldi olinadi.

Ayrim o'qituvchilar kun ora diktant yozdirlsalar ham, uning natijasi bilan o'quvchilarni xabardor qilmaslik hollari uchraydi. Bunda o'quvchilar savodxonligi tekshirib ko'riladi-yu, kamchiliklarning oldi olinmaydi. Natijada, o'quvchi qaysidir so'z yoki gapni bir necha marta xato yozib qo'yadi. Buning oldini olish uchun barcha turdagi yozma ishlar me'yoriga rioya qilish va vaqtida tekshirib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning barcha turdagi yozma ishlarini tekshi-rishda imlo va tinish belgilaridagi xatolar bilan bir qatorda chiroyli yozuv sifatiga ham e'tibor beriladi.

i—2-sinflarda o'quvchi xato yozgan so'zni chizib, ustiga to'g'risini yozib ko'rsatiladi. Tinish belgilari ham shu tartibda to'g'rilanadi.

3—4-sinflarda o'quvchi xato yozgan so'zning tagiga chizib qo'yilishi kifoya. Tinish belgilari qo'yilmagan bo'lsa qo'yiladi, xatolari bo'lsa, tuzatiladi.

O'quvchilar yozma ishini baholashda quyidagi me'yor-dan foydalanish mumkin:

—agar o'quvchi xatosiz, chiroyli yozib, topshiriqni ongli bajargan bo'lsa, uning ishini namuna sifatida maqtab, ko'rgazmaga qo'yiladi;

—agar o'quvchi yozma ish va qo'shimcha topshiriqlar-ning to'rtidan uch qismini to'g'ri va ongli bajarsa, «4» baho qo'yiladi. Uning xatolari asta tushuntiriladi va unda keyingi safar, albatta, a'lo bajarishi mumkinligiga ishonch hosil qilinadi;

—agar o'quvchi yozishi va bajarishi kerak bo'lgan ishning yarmidan ko'prog'ini to'g'ri va ongli bajarsa, bunday o'quvchi bilan qo'shimcha ravishda ish olib boriladi.

1-sinf o'quvchilarining ishlari «qoniqarli» yoki «qoni-qarsiz» deb og'zaki baholanadi.

2—4-sinf o'quvchilarining ishlari quyidagicha baholanadi:

—agar o'quvchi tekshirish diktantini to'g'ri va chiroyli yozgan, biroq ayrim harfJarni tuzatgan bo'lsa, keyingi safarxatoga yo'l qo'ymasligi ta'kidlanadi;

—agar o'quvchi diktantda 2 ta imlo va bitta tinish belgiiariga oid xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, shuningdek, ayrim harf shakllarini noto'g'rl yozib tuzatgan bo'lsa, bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib boriladi;

—agar o'quvchi 3 ta imlo va 2 3 la tinish belgiiariga oid yoki 4 la imlo va 2 la tinish belgiiariga oid va undan ko'p xaloga yo'l qo'ygan bo'lsa, yo/nv sifati talabga javob bermasa va fuzatishlari bo'lsa, bunday o'quvchilarga amaliy yorclam beriladi.

Diktantda quyidagi xatolar hisobga olinmaydi:

a) o'quvchilarga o'rgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar;

b) gap oxiriga nuqta qo'yilmagan bo'lsa-yu, keyingi gap bosh harf bilan yozilsa;

d) gap ma'nosini buzmaganda biror so'/ boshqa so'z bilan almashtirib yozilsa.

O'quvchilar ishini tekshirish va baholash ehliyotkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun xatolarning sabablari aniqlanib, ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar ustida ishlanadi. Jumladan, o'quvchilar quyidagi sabablarga ko'ra xato yozishlari mumkin:

—gap yoki undagi biror so'z ma'nosini tushunmagan-Jarida. Shuning uchun yozdiriladigan malncla o'quvchilarga notanish so'zlar bo'lsa, doskaga yozib ko'rsatish va ma'nosini tushuntirish lozim.

—imlo va grammatika qoidalarini ongli o'zlashtir-maganliklari sababli. Bu xatolikning oldini olish uchun, albatta, darslarda har bir qoidaning o'quvchilar tomonidan puxta va mustahkam o'zlashtirilishiga e'tibor berish kerak. Buning uchun

o'rganilgan qoidaga daxldor mashqlarni bajarish, har bir mashqni bajarishda ularga daxldor qoidani eslatib turish zarur.

—imlo qoidalarini bilsa ham, uni unutib qo'yish natijasida. Bunday xatoga yo'l qo'ymaslik uchun shu qoidaga oid mashqlardan ko'proq ishlatish kerak. Masalan, «Shahar nomlari bosh harf bilan yoziladi» qoidasi o'rganilganidan keyin, *Namangan, Toshkent, Samarqand* kabi shahar nomlari yozib ko'rsatiladi. Shahar nomlari gap orasida kelganda ham o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishlari mumkin.

Demak, o'quvchilar bilimi puxta emasligi, e'tiborsizlik bilan yozishlari, imlo qoidalarini unutib qo'yishlari va yozayotgan so'zlarining ma'nosiga tushunmasliklari natijasida xatolarga yo'l qo'yar ekanlar. Bunday xatolarning oldini olish uchun diktant yozdirishdan oldin o'rganilgan qoidalarga mos turli mashqlarni bajartirish lozim.

O'quvchilarning ko'pchiligi xato yozgan so'zlar to'g'rilanib, doskaga ustun shaklida yoziladi. Bu so'zlarni o'quvchilar daftarlariga ko'chirib yozadilar.

Yozdirilgan matn tekshirilib, baholanganidan keyin navbatdagi yozuv darsida yoki darsning bir qismida o'quvchilar bilan tahlil qilinadi. Tahlil, xatolar ustida ishlash o'quvchilarning savodxonligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Bayon ustida ishlash. Yozma ish turlaridan biri bayondir. 3-sinfda yoziladigan hamma bayonlarni, asosan, ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi turi o'qituvchi tavsiya qilgan tayyor reja, ikkinchi turi esa o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar bilan hamkorlikda tuzilgan reja asosida yoziladi.

To'plamdagi matnlarni joylashtirishda yuqoridagi bo'slinish usuli asos qilib olingan. Ikki turda bayon yozishga o'rgatish ishlari butun o'quv yili davomida olib boriladi. O'qituvchi o'quvchilarga tayyor reja asosida bayon matnlari ustida ishlash va bayon rejasini tuzishga o'rgatishni o'z tizimiga kiritadi hamda matn hajmining katta-kichikligiga qarab ularni joylashtiradi. Bayonga oid bo'lgan topshiriqlarni murakkablashtirib boradi. Tayyor reja asosida bayon yozish butun o'quv yilida davom etadi.

O'qituvchi taqvim reja tuzishdan oldin matnlarni tanlaydi. Matndagi so'zlar, gaplar ona tilidagi qaysi mavzuga ko'proq mos ekanligini ham aniqlaydi. Shundan kelib chiqib matnlarni taqvim-mavzu rejasiga joylashtirish kerak. To'plamda ham iloji boricha shu tartibni hisobga olishga harakat qilingan.

O'qituvchi 3-sinf o'quvchilarini bayon yozishga o'rgatar ekan, dastur va matnlarning mazmuni orasidagi bog'lanishlarni nazarda tutadi. Ishni yengillashtirish maqsadida matndagi imlo qoidalariga oid so'zlar beriladi. Shuningdek, kuzatishdagi, o'qish darsligidagi materiallar bilan bayon matni orasidagi bog'lanishni tiklaydi. ,

O'quvchilarning tayyor reja asosida yozadigan bayon matnlarining hajmi 60-80 so'zdan tuzilishi mo'ljallanadi. O'qituvchi bu bo'limda to'liq bayon uchun hajmi katta matnlar tanlaydi. So'ngra saylab yoki tanlab bayon yozish uchun hajmi katta matnlar beriladi. Ishning bunday turi o'quvchilarni to'rtinchi sinfda o'tkaziladigan matn mazmunini qisqartirib yozishga tayyorlaydi.

Bo'lim boshida berilgan bayonning birinchi turi, tayyor reja asosida, bayon yozishda rejaning har bir qismiga javob bir yoki ikki gapdan iborat bo'lishi kerak. Shu bilan birga reja sarlavhasi ko'proq so'roq gap shaklida bo'lsa maqsadga muvofiqdir. Bu ish usuli ikkinchi sinfda ham qo'llanilgan. Bunday matnlar mumkin qadar yozuv taxtasida yoki qog'ozda berilishi lozim.

Matnning rejasi qismlar va uning mazmuniga muvofiq bo'lishini o'quvchi doim o'z diqqat markazida tutishi zarur. Boshqacharoq aytganda, u reja bandiga javob nechta gapdan iborat, qaysi xat boshi yoki qaysi gap rejada aniq ifodalanmagan, nima uchun ifodalanmagan, yozuv taxtasidagi gaplardan foydalanish lozimligi ustida bosh qotiradi.

Dastlabki bayonlarga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarni matnni qismlarga bo'lib gapirtirishga ko'proq e'tibor berish kerak va reja savollariga sodda gaplar bilan to'g'ri javob olishga erishish lozim. Shu bilan birga, bayonga puxta imloviy tayyorgarlik ko'riladi. Bu bayon darsning o'zida va oldingi ona tili darslarida xuddi ikkinchi sinfdagidek olib boriladi.

Asta-sekin atov va ikki tarkibli gaplar («Samad yordam berdi», «Bola shirin» va boshqa hikoyalar), shuningdek, umumiy xarakterdagi soʻroq gaplardan iborat rejalar beriladi. Bu hoi oʻquvchilarga doimo qulaylik tugʻdirmaydi. Chunki reja bandlarining (yuqoridagidek) ifodalanishi butun xat boshini (qismni) kengaytirib bayon qilishni talab qiladi. Bunday reja boʻyicha ishlash oʻquvchilarga qulay bolishi uchun bayonning biror qismini birgalashib puxta tahrir qilish taqozo etiladi. Masalan, «Eng zoʻr sovgʻa» matnidagi rejaning toʻrtinchi bandida «Oxiri ammasi sovgʻasini uzatdi» deb berilgan.

Bu qismga matndagi toʻrtta gap javob boʻla oladi. Bayon mazmunini oʻquvchi ongiga toʻliq yetkazish maqsadida quyidagicha yordam beriladi. Ushbu parcha (toʻrtta gap) oldindan yozuv taxtasiga yoziladi. Oʻquvchilar parchani ichda oʻqiydilar, soʻng hikoya qiladilar.

Rejaning bu qismida yana boshqacha ish turini qoʻllash mumkin. Berilgan qismga toʻliq javob olishda oʻquvchilarga yordamchi savollar beriladi. Soʻng yozuv taxtasiga yozilgan matn bilan oʻquvchilarning hikoyasi taqqoslanadi. Berilgan parchani toʻliq bayon qilishda oʻquvchilarga shu tarzda yoʻllanma berib boriladi. Matnning bir-ikki qismi ustida xuddi shunday mashgʻulot olib borish natijasida oʻquvchilar, birinchidan, oʻqituvchining oʻqigan hikoyasini diqqat bilan tinglashga, ikkinchidan, reja sarlavhalarini puxta oʻylashga va bayon matnini toʻliq qayta hikoyalashga oʻrgatiladi.

Birinchi yarim yilda toʻliq qayta hikoyalashga oʻrgatish uchun «Yaxshilik yerda qolmas» matni yuzasidan tayyorgarlik koʻrish darsini namuna sifatida koʻrsatamiz. Bayonga tayyorgarlik koʻrishda sinfdan tashqari oʻqish darslarida yaxshilik qilish, bir-biriga yordam berish haqida suhbat oʻtkazish maʼqul. Ona tili darslarida joʻnalish va chiqish kelishiklari qoʻshimchalarining yozilish qoidasi eslatiladi. *Holatga, falokatdan, tuzoqqa* soʻzlari mashq qilinadi.

Darsning borishi:

Qisqagina suhbat. Arining turli joylarda uchib yurishi, uning qanotlari nozik bo'lishi, kabutarning tadbirkorligi, bir-biriga yaxshilik qilish, yaxshilikka-yaxshilik qaytishi haqida qisqacha so'zlanadi.

O'qituvchi matnni ifodali o'qiydi va savollar asosida tahlil qiladi.

«Hikoyaning uchinchi qismidagi «... falokatdan qutildi» iborasi qanday ma'noni anglatadi? O'ylab ko'ring-chi? «Ari suvda oqib ketmadi» ma'nosini bildiradi, Kabutar Arining suvdan chiqishi uchun nima qildi? (Bu savol kabutarning arini qutqarish uchun qilgan ishini gapirishni talab qiladi.) *Kabutar bir chopni suvga tashladi. Ari cho'pni kema qilib falokatdan qutildi*».

Ari so'zini takrorlamaslik uchun o'qituvchi quyidagilarni so'raydi: «*Matnda ishtirok etuvchilarni ayting (ari, kabutar, bola). Hamma o'rinlarda ari so'zi ishlatilganmi? (Yo'q.)* O'ylab ko'ring- chi, hikoyaning qaysi qismida ari yoki ari o'rnida u so'zini ishlatish ma'qul. Shuningdek, matnda kabutar so'zini doimo ishlatish kerakmi yoki matnning qaysi qismida u so'zini ishlatish o'rinli bo'ladi. Bola so'zi hamma o'rinlarda ishlatilganmi? (*Ha, ishlatilgan.*)»

Shundan keyin o'qituvchi matnni qismlar bo'yicha ifodali o'qiydi. O'quvchilar esa qismlararo qaysi so'zlar ishlatilganini ko'rsatadilar.

O'qituvchi ko'rsatilgan so'zlarni reja qismlariga moslaydi va savol- ning qatoriga yozib, tik chiziq bilan ajratadi.

Birinchi qism o'qiladi. Ari so'zi ajratiladi. Bu qismda hikoyaning boshlanishi va arining qayerda uchib yurganligi, hikoya qahramonining nomini ko'rsatish lozimligi aytiladi. Ikkinchi qism o'qiladi va bu qismdagi voqea ariga tegishli bo'lganligi uchun ari so'zi o'rnida u so'zi qollanganligi aytiladi. Uchinchi qismda kabutar haqida gapirilgan. Shuning uchun kabutar so'zi ishlatilganligini aytadilar. **To'rtinchi qismda** ari haqida gap boradi. Bunda ari so'zining berilishi to'g'riligi uqtiriladi.

Beshinchi qism o'qiladi. Bu qismdagi voqea bolaga tegishli.

Oltinchi, yettinchi qismlar ham o'qiladi. Ari, bola so'zlarining berilishi to'g'ri ekanligi aytiladi.

Sakkizinchi qism o‘qiladi. Bunda *kabutar* so‘zi berilgan. Bu o‘rinda shu nom mos kelgan. Chunki gap kabutar haqida boradi.

«Ari, kabutar va bola» so‘zlari ustida ishlash

Ari qayerda uchib borardi? *ari*

U birdan suvga yiqilib, qanday holatga tushdi? *u*

Kabutar arini ko‘rib nima qildi? *kabutar*

Ari qanday qilib falokatdan qutildi? *ari*

Bola tuzoq qo‘yib nima qildi? *bola*

Ari kabutami qutqarmoqchi bo‘lib nima ish qildi? *ari*

Kabutar nimadan qutildi? *kabutar*

Matnni so‘zlab berishda birinchi qismda bitta gap berilishiga qaramay «*u*» ga e‘tibor beriladi. Arining falokatga uchrashi shu gapdan boshlanadi.

Matnning asosiy qismlari (2-, 6-) ustida ish olib borish zarur. Bu qismlardagi ikkita gapda ari haqida fikr yuritiladi. O‘quvchilar *ari* so‘zi o‘rnida «*u*» ni qo‘llab, so‘zlab beradilar.

Yozishga tayyorgarlik

Agar matn yozuv taxtasiga yoki kartonga yozilgan bo‘lsa, o‘quvchilar uni ichda o‘qiydilar. Shundan so‘ng ayrim so‘zlarni (*holatga, rahmi, darhol, cho‘pni, falokatdan, ko‘rib*) bo‘g‘inlab aytadilar yoki ularning imlosini izohlaydilar. O‘quvchilarga reja asosida yozish uchun o‘ylashga vaqt beriladi. Yozuv taxtasidagi matn yopiladi. Matn mazmunini eslashda o‘quvchilar tomonidan aytilgan imlosi qiyin so‘zlardan 2-3 ta- sini o‘qituvchi yozuv taxtasiga yozib qo‘yadi.

Tanlab bayon yozish

Muallif K. Qosimovaning «Ona tili o‘qitish metodikasi» darsligida ko‘rsatilishicha, tanlab bayon yozish bayon matnining biror qismini tanlab qayta hikoyalashdir. Masalan, o‘qilgan matndan faqat qatnashuvchilarning tashqi ko‘rinishi, tasvirlangan qismnigina qayta hikoya qilish, faqat ikki qatnashuvchining uchrashish manzarasini qayta hikoyalash, faqat tabiat tasvirini hikoya qilish kabidir.

Tanlab bayon yozish yozma bayon sifatida ham o'tkaziladi. Tanlab bayon yozishda matn o'quvchining ko'z oldida bo'lmaydi. O'quvchi butun matn mazmunini yoritib berishda qiynaladi. Shuning uchun matn qismlarining mazmuni tugallangan bir fikrda bayon qilinadi.

Tanlab bayon yozishda quyidagi ish turlarini qo'llash o'quvchilar uchun foydali va qiziqarlidir. Hajmi kattagina boigan matn mazmunini aralashtirib beriladi - bu esa voqeani tushunishga va ko'proq tafsilotlarni kiritishga imkoniyat beradi. Shu usulda o'quvchilarning mantiqiy faoliyatlarining ayrim tomonlari taraqqiy ettiriladi. Bolalar material tanlash, uni chegaralash, mavzuni qisqaroq bayon qilishga o'rgatiladi.

Ayrim vaqtlarda tanlab bayon yozishda qismlararo bog'lanishga erishish lozim. Bayon yozishni boshlashda mustaqil so'zlarni almashtirish, o'zicha ijod qilish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stiradi. Bu ishlar o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. Tanlab bayon o'tkazishda o'quvchilar hikoyani eshitadilar va sinchiklab o'rganadilar. So'ng bayonda nima haqida to'xtalish lozimligi to'g'risida aniq ma'lumot oladilar. Bayonning bu turiga «Sariq ip» matniga oid dars namunasi beriladi. Matn ifodali o'qiladi (71-bet). O'qituvchi o'quvchilar matn mazmunini qay darajada tushunganliklarini aniqlash uchun ularga savollar beradi: «*Nima uchun Karima sevindi? Ular nima qilmoqchi edilar?*» kabi.

Shundan keyin matnning ikkinchi qismi haqida so'z boradi. Bu qismda o'quvchilarga faqat Karimaning siri ochilishi haqida yozish kerakligi aytiladi. O'qituvchi oldindan yozuv taxtasiga yozib yopib qo'ygan rejani ochadi. Hikoyani boshlashdan oldin rejaning birinchi qismiga javob o'ylash uchun ozgina vaqt beriladi. Qisqa suhbatdan so'ng hikoyani taxminan quyidagicha boshlash tavsiya etiladi: «*Nasibaning sariq ipi tamom bo'lgan edi. U Karimadan ozgina ip so'radi*». Shunday qilib, o'quvchilar reja qismlarining har biriga javob beradilar. O'quvchilar hikoyani ijodiy so'zlab berishga yaxshi tayyor bo'lsalar, mazmunini to'g'ridan-

to'g'ri to'liq so'zlab beradilar. Bu namuna asosida bir necha marta saylanma bayon o'tkazish mumkin.

Hamma o'quvchilar bayonni qanday boshlash va nima bilan tugatishni tushunib oladilar. Buning uchun o'quvchilar reja tuzadilar, tuzilgan rejani bir o'quvchi yozuv taxtasiga yozadi. Shu vaqtda 2-3 o'quvchidan bayonni qanday boshlamoqchi ekanligini so'rash lozim.

Agar vaqt bo'lsa, matrmi qayta hikoyalatish kerak. Hikoya qilish vaqtida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bayonga hozirligini aniqlash lozim, O'qituvchi hikoyalash vaqtida ayrim o'quvchilarning qiynalayotganini sezsa, ularga hikoya qilish va yozish vaqtida yordam beradi.

Rejasi o'zgartirilgan bayonda o'quvchilar qiynalmaydilar. Chun- ki, bayon rejasini o'qituvchining o'zi voqeaning ketma-ketligiga qarab beradi. O'qituvchi matn qismlari orasidagi bog'lanishda tu- shuntirilishi kerak bo'lgan o'rinlar uchrashi mumkinligini hisobga olishi kerak.

Ayrim vaqtlarda hikoyaning qismlari o'rtasidagi bog'lanishning muvaffaqiyatli chiqishi uchun bir-ikkita yangi so'z qo'shish mumkin.

To'plamga kiritilgan bayonning ikkinchi turida uchinchi sinf o'quvchilari reja tuzishga o'rgatiladi.

Hikoya rejasini tuzishda, avvalo, matnni qismlarga bo'lish lozim. Bunda voqeaning izchilligiga, uning rivojlanishiga va voqealar orasidagi o'zaro bog'lanishga ahamiyat beriladi. Buning uchun matn ko'z o'ngimizda bo'lishi shart. Hikoyaning har qismini qayta-qayta o'qish, uning mavzusini aniqlash, matnni qismlarga bo'lish, mazmuni bir-biriga yaqin bo'lgan qismlarga bitta sarlavha qo'yish talab etiladi. O'qituvchi tomonidan berilgan mavzuni yoritish uchun parchaning boshlanishi va oxirini topish kerak.

Matnlarni mustaqil ravishda qismlarga bo'lishda xatboshi muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga reja tuzish o'qish darslarida ham o'rgatiladi. Uchinchi, to'rtinchi sinf o'quvchilari matnni eshitish orqali yaxshi qabul qiladilar

(«Ona tili» darsligidagi bayondan tashqari), soʻng voqealarning ketma-ketligini aniqlash, qismlar va ular orasidagi chegaralanishni koʻrsatishlari kerak.

Koʻpincha oʻqituvchilar bayon yozdirishda oʻquvchilarga reja tuzishni yengillashtirish maqsadida quyidagi usuldan foydalanadilar: oʻqituvchi ovoz chiqarib parchani oʻqiydi, soʻng toʻxtalib, bu qismda gap nima haqida ekanligini aniqlaydi va oʻquvchilardan unga sarlavha qoʻyishni soʻraydi. Navbatdagi parchalar ham shu tartibda davom etadi. Bunday usullardan faqat ayrim vaqtlardagina foydalanish mumkin.

Bizningcha, reja ustida ishlash koʻproq oʻquvchiga taalluqlidir. Matnni mantiqiy tugallangan qismlarga boʻlishda oʻquvchilarni har xil usullardan foydalanishga oʻrgatib borish kerak. Buning uchun oʻquvchilar tomonidan qoʻyilgan (oʻylab topilgan) sarlavhalar oʻqiladi va muhokama qilinadi. Muhokama natijasida eng yaxshi sarlavhalar varianti tanlab olinadi va oʻqituvchi tomonidan yozuv taxtasiga yoziladi. Shunday qilib, bayon uchun yagona reja tuziladi. Sarlavhalash zarur taʼlimiy ish hisoblanadi. Maqsad - oʻquvchilar mavzu yoki matnning sarlavhalangan qismi mazmunini toʻgʻri aniqlashlaridan iborat.

Rasmi reja asosida bayon yozish uchinchi sinfda ham davom etadi. Buning uchun oʻqituvchi 3-sinf «Qʻzbek tili» darsligida berilgan rasmlardan foydalanadi. Shunday qilib, uchinchi sinf oʻquvchilari matnning mazmuniga mos sarlavha topishga, reja tuzishga tayyorlanadilar. Agar oʻquvchilar bu topshiriqni bajarayotganlarida matn ularning koʻz oldida boʻlsa, yana ham yaxshi boʻladi. Bu oʻquvchilarning bayonga tayyorlanishdagi va reja tuzishdagi mustaqilligini oshiradi. Dastlabki davrlarda sarlavha tuzish mashqlari jamoa tartibida oʻrganiladi. Shundan keyin reja tuziladi.

Agar oʻquvchilar oldida matn boʻlmasa, tahlildan soʻng matn ikkinchi marta oʻqib beriladi. Matnni oʻqishdan oldin oʻquvchilardan matn necha qismdan iborat ekanligi haqida fikr bildirishlari soʻraladi.

Oʻquvchilar uchun matnni qismlarga boʻlish va ularni sarlavhalash ancha murakkab ish hisoblanadi. Shuning uchun bayon yozish darslarida matnni

qismlarga bo'lishni birinchi chorakdanoq boshlash kerak. Ushbu maqsadda to'plamda jamoa bo'lib ishlash vaqtida uncha katta bo'lmagan matnlarni (26-40 so'zlik) yozuv taxtasiga yozish lozim. Ona tili darsida o'quvchilar daftariga bayon matnini yoki uning biror qismini yozdirib qo'yish maqsadga muvofiq.

Buning uchun o'qituvchi bayon matnidani (o'quvchiga bildirmagan holda) imloviy tahlil, izohli diktant o'tkazganda yoki boshqa mashqlarda foydalanishi zarur.

Matn yozilgan daftar o'quvchilar qo'lida qoladi. Ular navbatdagi bayon darsida daftardagi matn ustida ishlaydilar va uni qismlarga bo'ladilar.

Reja tuzishga o'rgatishda qismlarga oson bo'linadigan matnlar tanlab olinadi. Bunga misol qilib «Tirishqoqvoy» (89-bet) matnini keltiramiz.

Tirishqoqvoy degan chumoli bor ekan. U sheriklari bilan ariq bo'yida don terib yurgan ekan. Birdan suvga tushib ketibdi.

Tirishqoqvoy cho'ka boshlabdi, Shunda oldidan uzun o't poyasi chiqib qolibdi. Tirishqoqvoy unga tirmashib olibdi.

Baliqchalar o't poyasini qirg'oqqa sura boshlabdilar. Uni bir g'umay o'tga ilintiribdilar.

Tirishqoqvoy g'umay bargiga tirmashib, qirg'oqqa chiqib olibdi. Baliqchalarga minnatdorchilik bildiribdi.

O'quvchilar yozuv taxtasidagi matnni o'qiydilar va uning mazmunini tahlil qiladilar. O'qituvchi o'quvchilarga hikoyaning rejasini mustaqil ravishda o'zlari tuzishlarini aytadi.

O'quvchilar matn qismlarini tartib bilan o'qib, har bir qismda kim haqida yoki nima haqida gap borayotganini aniqlaydilar.

O'qituvchi qo'shimcha savollar berish orqali o'quvchilarning har bir qism mazmunini aniqlashga bo'lgan qiziqishini oshirib boradi. «Nihol tuzaldi» matnini yuqoridagiga o'xshash tarzda o'tkaziladi. Ularning har bir qismida yangi shaxs ishtirok etadi.

Ba'zi voqealarda ketma-ket almashib turuvchi matnlar bor. Bunday matnlar qismlarga bo'lishda juda qo'l keladi. «Qurtlar jonlandi» matnida (91-bet) besh

voqea mavjud bo'lib, ular bir- biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. O'qituvchi quyidagi savollarni o'quvchilarga beradi: *«Matnda necha xatboshi bor? Bir inchi xatboshida nima to'grisida gapiriladi? Unga nima deb nom qo'yish mumkin? Ikkinchi qismda matnni tushunish uchun nima juda muhim? To'rt inchi qism uchinchi qism bilan qanday bog'langan?»*

Hikoyaning qismiga sarlavha topish xatboshining muhokamasi bilan bir vaqtda boradi. Natijada matnni qismlarga bo'lish ishi osonlashadi. Agar bu matn yozuv taxtasiga yozilmasa, u holda o'qituvchi matnni ikkinchi marta o'qish oldidan o'quvchilarga shunday topshiriq beradi: «O'ylang, hikoyani necha qismga bo'lish mumkin?»

Hikoyani qismlarga aniq ajratish, faslga oid parchalarni taqqoslash voqealarning kutilmaganda almashinishi asosida bo'lishi mumkin.

O'quvchilar eshitgan matnlarini asta-sekinlik bilan qismlarga bo'lishni o'rganib boradilar. Bunda o'rgatishning eng yaxshi usuli o'quvchilarning o'qish darslarida hosil qilgan ko'nikmasi - og'zaki tasvirdir. Shu maqsadda to'plamda mazmuni yorqin tasavvur tug' diruvchi qator hikoyalar beriladi. Bayon yozish darsida barcha rasmlarni tasvirlab berish shart emas, buning iloji ham yo'il, Mumkin bo'lgan rasmlarning mazmunini qisqa ifodalab berishniup. o'zi kifoya.

Ayrim hollardagina hikoyaning bir qismini to'liq tasvirlash zarur.

3-sinfda reja xuddi 2-sinfdagidek qayta hikoyalash uchun tayanch hisoblanadi. Matnni oldindan tayyorgarliksiz qayta hikoyalash bayon uchun hech qanday natija bermaydi. Oldin reja qismlariga berilgan javobni tinglash, so'ngra uni tahrir qilish ma'qul. O'quvchilar e'tiborini dastlab hikoyaning qiyinroq bo'lgan bir yoki ikkita qismi mazmunini tinglashga qaratish lozim. Shunda o'quvchilar bu qismdagi gaplar sonini aniq bilib oladilar. Qayta hikoyalash davrida ortiqcha va imlosi qiyin bo'lgan so'zlar chiqarib tashlanadi. Asosiy diqqatni matn tiliga, sodda gaplarni ishlatishga qaratish kerak. O'qituvchi to'plamda qo'shma gaplarning juda kamligini, ular ham zarurat tug'ilgandagina ishlatilganligini bilishi shart.

Hech bo'lmaganda, matnning birinchi yoki ikkinchi qismini qayta hikoyalashni muntazam mashq qildirish o'quvchilarning boshqa qismlar mazmunini anglashda o'ziga nisbatan talabchan bo'lishlarini ta'minlaydi.

Shundan so'ng to'liq qayta hikoyalash har doim talab qilinavermaydi. Uni o'tkazishdan oldin o'quvchilar e'tiborini matn qismlarining bog'lanish usullariga qaratish lozim. Bog'lash vazifasini bajaruvchi: *to'satdan, bir kuni, o'shanda, shuning uchun, lekin, kabi* so'zlarni o'quvchilar ongli ravishda tushunib qo'llay bilsinlar.

Bolalar o'rtoqlarining ravon, to'liq qayta hikoyalarini tinglar ekan, ularga hikoya qatnashchilari nomlarini aytishda bir xillik bo'lmasligini kuzatib borish topshiriladi. Biz to'plamdagi ko'p matnlarda nomlar sinonimlarining o'rinli ishlatilishi haqida o'z mulohazalarimizni berdik. O'qituvchining o'zi boshqa matnlarga nisbatan ham shunday yo'l tutishi mumkin. U matn qahramonining nomi yoki «u» olmoshini takrorlashdan qutilish yo'llariga ahamiyat beradi. Birinchi shaxsni uchinchi shaxs bilan almashtirish zarur bo'lganda, qahramonni qanday atashni jamoa bo'lib hal qilish kerak. O'quvchilar ona tili darsida xuddi shunga oid

Tirishqoqvoy degan chumoli bor ekan. U sheriklari bilan ariq bo'yida don terib yurgan ekan. Birdan suvga tushib ketibdi.

Tirishqoqvoy cho'ka boshlabdi, Shunda oldidan uzun o't poyasi chiqib qolibdi. Tirishqoqvoy unga tirmashib olibdi.

Baliqchalar o't poyasini qirg'oqqa sura boshlabdilar. Uni bir g'umay o'tga ilintiribdilar.

mavzularni hali o'rganmaganlari uchun yozuv taxtasiga mumkin bo'lgan nomlar va so'zlar yozib qo'yiladi: *Zokir bola, u o'quvchi, ovchi, yozuvchi, odam* kabi.

Gap ustida olib boriladigan ish ba'zan darsning alohida bosqichini band qilib qo'yishi ham mumkin. Agarda bolalar gap tuzishda qiynalib qolsalar, ularga quyidagi usullar bilan yordam berish kerak:

Birinchi gap uchun zarur shakldagi, lekin ketma-ketligi saqlanmagan so'zlarni yozuv taxtasiga yozib qo'yish.

Yozuv taxtasiga kutilgan fikrni ifodalovchi gap chizmasini berish, ba'zan unga tayanch so'zlarni kiritish: *kim? qayerdan? chiroyli qizil nima? nima qildi?* kabi. Bu o'quvchilarga gaplarni to'g'ri tuzishlarida yordam beradi, qolaversa, ma'lum qoidalarga oid so'zlarni qo'llashga ham undaydi.

Gaplar tuzishga yordam maqsadida ba'zan alohida so'zlar yozilgan tarqatma manbalar berish. Bolalar reja bandiga javob beruvchi bir yoki ikkita gap hosil qiluvchi rejaga tarqatma manbalarni kerakli holda joylashtiradilar.

Agarda fikrni sodda gaplar bilan ifodalash qiyin bo'lsa, qo'shma gapning bir qismini yozuv taxtasiga yozib qo'yish. (*.. .kuni edi, shuning uchun..*). Ikkinchi chorakda 3-sinf o'quvchilarida bayonda ko'p uchraydigan «shuning uchun» bog'lovchisi oldidan vergul qo'yish ko'nikmasini hosil qilish lozim.

Uchinchi sinfda bayon ustida ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirishni ko'zda tutadi. Bu ish ikki ko'rinishda bo'ladi:

Matnda qatnashuvchilarning turli nomlanishini kuzatish, qaysi so'z matnda aynan o'z o'rnida ekanligini aniqlash.

Bu ishni yoiga qo'yish uchun matnni tahlil qilish paytida o'quvchilar bulardan qayta hikoyalashda, ba'zan yozma ish vaqtida foydalanishlari uchun yozuv taxtasiga ular o'rnini bosa oladigan qator so'zlarni yozib qo'yish kerak.

Almashtirish yo'li bilan turg'un birikmalarni tushuntirish.

Ikki bo'la κ qildi, ko'p urindi, hech qanday kuch kabi matndan olingan iboralar ustida bayon yozishdan oldin imloga oid tayyorgarlik ko'rish zarur. Bu tayyorgarlik qisman ona tili darslarida bajariladi. O'qituvchi bayonni bayon matniga xos imlo xususiyatiga taalluqli mavzu o'tilgach yozdirishi kerak. Bayon matnidagi yangi sp'zlarning yozilishini darslardagi mashqqa kiritish mumkin.

Bayondagi xatolarning oldini olish mashqlari xuddi ikkinchi sinfdagidek o'tkaziladi. Reja savollarida uchraydigan qiyin so'zlar esga solinadi. O'quvchilarni sarlavha, reja mazmunini anglab olishga odatlantirish lozim. Ma'lumot uchun

soʻzni chegaralangan miqdorda berish kerak. Hammasidan ham ularni reja savollari bilan yonma-yon joylashtirish yoki reja ostiga alohida roʻyxat qilib, 3-4 soʻz kiritish mumkin. Matnni koʻrish orqali qabul qilish uchinchi sinfda imloga tayyorlanish uchun qiyinchilik tugʻdiradi, chunki matn yozuv taxtasiga yozish uchun kattalik qiladi. Shunga qaramay, qiyin soʻzlarni imloviy tahlil qilish uchun matndan katta boʻlmagan bir parchani yozuv taxtasiga yozish mumkin. Xatolarning oldini olishga oid ish tugagach, yozuv taxtasidagi yozuv oʻchiriladi. Baʼzan bayonda xatoga yoʻl qoʻygandan koʻra, oʻquvchiga yozuv taxtasidagini koʻchirib olishga ruxsat bergan maʼqul. Bu juda kam uchraydigan holdir. Fikrimiz koʻproq koʻchirma gaplarga taalluqli. Masalan, *«Kel boʻtalogʻim. Olani qashlab tur!», - dedi buvisi.* Gap ishtirokchilarning harakatlarini tushuntiradi. Oʻquvchilar qachonki koʻchirma gap mazmunini oʻzlashtirma gap shaklida bermoqchi boʻlsalar, ular nutqda palapartishlikka yoʻl qoʻyadilar, tinish belgilarini oʻz oʻrnida ishlata bilmaydilar. Shuning uchun ular yozuv taxtasidagi matndan foydalansalar, toʻgʻri va savodli yozishga erishadilar.

Uchinchi sinf oʻquvchilarining bayonlarini tekshirganda oʻqituvchi barcha imlo xatolarini tuzatishi shart emas, balki diktant va boshqa nazorat ishlaridagi xatolarni koʻrsatishda qoʻllangan usullardan foydalanishi ham mumkin.

Uchinchi sinfda bayonlar muhokamasiga maxsus dars ajratmay, navbatdagi ona tili darsida bayon matnining mazmunini yoritishda va gaplarni tuzishda yoʻl qoʻyilgan xatolarni tuzatish ishiga 12-15 daqiqa vaqt ajratish kifoya qiladi. Oʻquvchilarning bayonda yoʻl qoʻyadigan xatolari ustidagi ishni shunday rejalashtirish kerak-ki, bu ona tili darsida navbatdagi grammatik imloviy mashqlar bilan qoʻshilib ketsin.

Oʻyin mashgʻulotlari taʼlim jarayonida oʻquvchilarning egallagan bilim, koʻnikma va malakalariga tayanadi va shundagina oʻquvchilar oʻyinning samarali yechimlarini topa biladilar, oʻzlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar.

2.3. Maxsus metodlar asosida imloviy bilimlarni tekshirish usullari.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil etish jarayonida maxsus ishlab chiqilgan metod va usullardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Maxsus metodlar deganda didaktik o'yinlar, innovasion texnologiyalar, modulli o'qitish texnologiyasi va boshqalar misol bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'mi beqiyosdir.

O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir.

O'yin - boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lura sifatلامي shakllantirish uchun kattalar- o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala ma- daniyati shakllanadi.

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi.

O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishi- ga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi.

Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yining hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiluvchi kattalar didaktik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim.

Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hammavaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng foydalanish an'analari o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlan- tirildi.

Chex pedagogi Ya. A. Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini

aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uni tengdoshariga yaqinlashtiradi.

Bolalar tarbiyasida didaktik o'yinlardan ikki yo'nalishda: barkamol insonni shakllantirish va tor didaktik maqsadlarda foydalaniladi. O'yin o'quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O'yin - muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda o'quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o'yinlar o'quvchining turli tuman qobiliyatlari, idroki, nutqi va diqqatining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda pedagoglar tomonidan tayyor mazmun va qoidalar ega bo'lgan o'yinlar yaratilmoqda. Bola shaxsida ma'lum sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'yinlarda aniq qoidalar berilgan bo'ladi. Tayyor qoida va mazmunga ega bo'lgan o'yinlarga quyidagi xususiyatlar xos bo'ladi: o'yin g'oyasi va vazifasi o'yin ta'sirida amalga oshiriladi. O'yin g'oyasi (yoki vazifasi) va o'yin ta'siri o'yin mazmunini tashkil etadi; o'yin ta'siri va o'ynayotganlar munosabatlari o'yin qoidasi asosida boshqariladi. Qoidalar va tayyor o'yin mazmuni o'quvchilarni o'yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashq (harakatli) o'yinlar.

Didaktik o'yinlar uchun o'yin g'oyasi va o'yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmuni amalga oshadi. Qoidaning mavjudligi o'yin ta'sirini amalga oshirish va o'yin vazifasini qo'llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi. Didaktik o'yinda o'quvchi qoidalarga rioya qilishga o'rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

«O'zim tekshiraman»

Bunday o'yinlar o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi dik- tantlarni tanlaydi. Bunday o'yinlarni har bir boshlang'ich sinf- da darsning awalida o'tkazish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko'rsatadi. Diktant xattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'qituvchi par- dani ochadi. O'quvchilar esa o'qituvchi yozganiga qarab o'zlarining diktantlarini tekshiradilar. Bunday diktantlarni hatto alifbe darsida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avvaliga faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo'g'inlardan iborat diktant yozdirsa bo'ladi.

- *variant*: O.o. Li. U. u. A. a. O'.o'.

- *variant*: - Lo. - no. - to. - mi. - in.

- *variant*: Bola, lola, ona, zar, par.

- *variant*: Bugun havo issiq.

«Hikoya»

O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar.

O'quvchilar hikoya tuzar ekanlar, ularning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

O'quvchilarni vaqti-vaqti bilan rag'batlantirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslari- da yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

- *variant*: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

- *variant*: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon

« U kim? Bu nima? »

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi, o'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar.

Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchikovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar.

(Javob: «Koptok»)

variant: U barcha o'quvchilar o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar.

(Javob: «Kitob»)

variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi. Xohlasak stol yoki stul ham bo'lishi mumkin.

(Javob: «Daraxt»)

«Topag'on»

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi.

Bu o'yinni o'tkazish o'quvchilarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengilashtiriradi. Bundan tashqari ulaming so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

variant: Savol: Nima oq rangda?

Javob: Qog'oz, daftar, surp, bulut, parda, buvumning sochlari, qor.

variant: Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko'rpa, paxta.

variant: Savol: Nigora nima qilayapti?

Javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvayapti, qoshiq artayapti.

«Noto‘g‘ri jumla»

Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchini suratni tasvir- lab berishi asnosida suratlariga tegishli bo‘lmagan jumlamani ham ishlatadi. O‘quvchilar ziyraklik bilan shu jumlamani topishlari lozim.

O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, ku- zatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab tu- radilar. Har bir noto‘g‘ri jumlani topa bilish ulaming o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o‘yin-dan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

variant (Manba. T.G‘afforova va b.q. «Ona tili», 1-sinf uchun darslik. 2009-y. 36-bet, 62-mashq.)

Hasan tuxumlami joyiga qo‘ydi. Bir necha kun o‘tdi. Nigora koptogini yo‘qotib qo‘ydi. Qaldirg‘och bola ochdi.

(Nigora matnda yo‘q.)

variant. (Manba shu darslik, 52-bet, 96-mashq.),

Bobomiz Amir Temur bog‘lar yaratgan.

Bog‘larning ichiga saroy, hovuz, favvora qurdirgan. Gulnora kitob o‘qib o‘tirgan edi. U yerlarda mevali daraxt, chinor, gul ek- tirgan.

(Javob: Gulnora haqidagi jumla matnga tegishli emas.)

variant: (Manba shu darslik, 60-bet, 109-mashq.)

Buxoro qadimiy va navqiron shahar. Shaharda Labihovuz, Ko‘kaldosh kabi yodgorliklar bor. Dildora a’lochi qiz. Sayohatchilar Shohrud arig‘i bo‘yida sayr qiladilar.

(Javob: Dildora haqidagi jumla matnga tegishli emas.)

So‘nggi yillarda pedagogika nazariyasiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi. Bu esa pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tushunchalarning aksariyati texnika va iqtisod

sohalaridan kirib kelgan bo‘lib, aynan shu sohalar insoniyat fikrining rivojlanishiga asos bo‘lmoqda.

Bugungi kunda ta‘limning iqtisodiyligi va takomillashganligi, o‘qituvchi va o‘rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar, ta‘lim iqtisodi, o‘qitishni kompyuterlashtirish kabi muammolarda turli-turli fikrlar bildirilmoqda.

«Innovatsiya - yangilik» so‘zining qachon pay do bo‘lganligi aniq bo‘lmasa-da, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo‘lib, unga turli ta‘riflar va fikrlar bildirilmoqda.

Innovatsiya jamiyat paydo bo‘lishidan boshlab o‘zgarib kelinmoqda. Ba‘zi pedagoglar innovatsiya so‘zini tor ma’noda ta‘limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq ta‘rif bermoqda. Ta‘lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o‘qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.


Quyida shunday interaktiv metodlardan namunalar keltiramiz.

«Tarmoqlar» metodi (klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu metod o‘quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi.

Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz 4-sinf ona tilidan «So‘z tukumlari»

mavzusidagi takrorlash-umumlashtirish darsida fodalanish mumkin bo'lgan klasterdan namuna sifatida misol keltiramiz:



Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, bilimlarni o'zlashtirishga mas'uliyat va qiziqishni tarbiyalaydi. 4-sinf ona tili darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

Buning uchun o'qituvchi xattaxtani uch qismga bo'ladi. Birinchi qismiga «Bilaman», ikkinchi qismiga «Bilishni xohlayman», uchinchi qismiga «Bilib oldim» deb yozadi. Keyin o'quvchilarga murojaat qilib, kim «Ot so'z turkumi» haqida nima bilishini so'raydi va o'quvchilar fikrini «Bilaman» ustuniga yozadi. Sinfda fikrlar tugagandan keyin o'quvchilarga yana murojaat qilib, «Ot so'z turkumi» haqida yana nimalar bilishni xohlashlarini so'raydi. O'quvchilar bergan savollarni xattaxtaning «Bilishni xohlayman» qismiga yozadi. O'quvchilar savollari tugagandan keyin o'qituvchi «Ot so'z turkumi» haqida ma'lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni o'quvchilarga tarqatib chiqadi. O'quvchilar matnlarni bilan ta-

chiqqanlaridan keyin fikrlashga o'tadilar, yangi ma'lumotlarni bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar. O'qituvchi o'quvchilardan «Ot so'z turkumi» haqida yana qanday yangi ma'lumotlarga ega bo'lishganliklarini so'raydi va «Bilib oldim» ustuniga yozadi. Keyin uchala ustunni umumlashtirib, birgalikda xulosa qilinadi.

<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
<i>Shaxs va narsalarning nomini bildiradi; Insonlar, shaharlar, ko'chalar va boshqa atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi; O'zining egalik qo'shimchalari: -m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i qo'shilganda shaxs va narsa buyumlarning qaysi shaxsga qarashliligi aniqlanadi. Tilda 3 ta shaxs bor: I shaxs - so'zlovchi. shaxs -tinglovchi. shaxs - o'zga. -m, -im, -miz, -imiz-1 shaxs; -ng, -ing, -ngiz, -ingiz-II shaxs; -i, -si, -(lar)I- III shaxs</i>	<i>Egalik qo'shimchalarida birlik va ko'plik ma'nolari qanday ifodalanişini.</i>	<i>-m, -im, -ng, -ing, -i, -si - egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi. -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i - egalik qo'shimchalari ko'plik ma'nosini bildiradi</i>

«Tarmoqlar» metodi (klaster)

juda uzoq o'ylab o'tiradigan o'quvchi butun guruhga ajratilgan vaqt- ni sarflaydi. Shuningdek, o'quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishla- shi kerak bo'ladi;

- o'quvchilar o'z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

Rotatsiya (aylanma) metodi bilan fikrlarni ko'rib chiqish

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida- alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa, muhokama birga- likda o'tkaziladi.

Sinfga tartib raqamlari bilan birga bir nechta topshiriq osib qo'yiladi. Har bir kichik guruh (2-3 kishi) 10 daqiqa davomida muhokama qilib, o'z javobining variantini yozib oladi-da, so'ngra keyingi topshiriqqa o'tadi va oxirigacha shunday qilib boradi.

Har bir guruh o'ziga rangli flomaster oladi: 1-guruh- da ko'k, 2-guruhda qora, 3-guruhda yashil flomaster bo'ladi. Qo'shimchalarni har kim har bir varaqqa o'zining rangli flomasteri bilan yozib boradi, shunda uchchala guruhdan har birining ishtiroki yaqqol ko'rinib turadi.

Topshiriqni 10 daqiqadan keyin almashtiriladi, 1-guruh 2-top- shiriqqa, 2-guruh 3-topshiriqqa, 3-guruh esa 1-topshiriqqa o'tadi.

Guruh oldingi o'quvchilar tomonidan yozib qo'yilganlarni o'qiydi va o'z javobi variantini yozib, to'ldiradi, bunda variantning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yana 10 daqiqadan keyin guruh keyingi topshiriqqa o'tib, yozil- ganlarni o'qiydi va o'z javoblari bilan to'ldiradi.

Yana 15 daqiqadan keyin javoblar tahlil qilinib, muhokama o'tkaziladi.

So'ngra eng ma'qul javob tanlab olinib, daftarga yozib qo'yiladi.

Bu metod mavzuni jamoa bo'lib muhokama qilishni ko'zda tutadi.

Har xil rangdagi flomasterlardan foydalanish yozilganlarning yaqqol ko‘rinib turishi va har qaysi guruhning javobdagi ishtiroki- ni baholash uchun qulay. Yozilgan javoblar tartib raqamlari bilan belgilab qo‘yiladi, bu - to‘g‘ri javoblarni hisoblash uchun qulaydir. Javoblarni hammadan ko‘p sonida yozgan kichik guruh eng yuqori ball oladi.

«Davra» metodi

O‘quvchilar davra qurib o‘tirib, taklif etilgan savolni g‘al izohlab chiqishadi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo‘shish imkoniga ega bo‘ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin qatnashchilar o‘z ixtiyori bilan navbatini o‘tkazib yuboradigan bo‘lsa, bu - ta- momila odatdagicha hoi. Ba’zan qanday bo‘lmasin biror savol yoki topshiriq davra bo‘ylab o‘tkaziladi va uni olgan o‘quvchi o‘z fikrini aytish huquqiga ega bo‘ladi.

Davra bo‘lib ishlashda hamma, jumladan, o‘qituvchi ham, teng huquqlidir; hamma bir-birini ko‘rib turishi, vizual aloqani qo‘llab- quvatlab borishi va shu bilan bir vaqtda so‘zlayotgan kishining gaplarini diqqat bilan tinglashi mumkin. Raundlardan ko‘pgina maqsadlarda, jumladan baho berish, muammoni hal qilish, ijo- biy mustahkamlash, davrani rejalashtirish, o‘tkazish uchun foy- dalansa bo‘ladi. Davrani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun hamma o‘quvchilar va boshlovchi bir-birini ko‘rib tura oladigan joy tayyorlash, ish tartibini tushuntirib berish zarur. So‘zga chiqmag- anlar diqqat bilan tinglab borishlari, aytilayotgan gaplarga izoh bermasliklari kerak, bunday qilish hattoki o‘qituvchiga ham rux- sat etilmaydi. Oxirida hammaga ularning ishtirok etganliklari uchun tashakkur bildiriladi. Guruh bilan ishlashda davralar qoi- dalarini o‘quvchilarga tushuntirib qo‘yish zarur. Bunday o‘yinga o‘rganmagan guruh bilan ishlashni o‘qituvchi nimalar qilish kera- kliligini o‘quvchiga tushuntirganidan keyin boshlashi lozim. Guruh bir qadar tajribali boisa, davra mashqining kimdan boshlanishi ahamiyatga ega emas.

Davraiardan o‘quv mashg‘ulotining boshi yoki oxirida foydalanish mumkin.

«Galereyani aylanish» metodi

Kichik guruhlarning hamma a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o'z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqiami ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo'lmasa, o'z variantini taklif etishi kerak.

«Munozara» metodi

Munozara - bu ikki yoki bundan ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki ravishda o'zaro olib bo- radigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Uning asosida kam- dan-kam hollarda yashirin mo'ljal pinhon yotadi, bu o'rinda faqat nazariy qiziqish va oqillik bilan keltirilgan dalil yordamida oppo- nentdan ustun kelish ishtiyoqi bo'ladi. Munozara nazariy a yoki g'oyalarni targ'ib qilish maqsadida emas, balki mamnun bo'lish va qatnashchilarga bilim berish maqsadida olib boriladi. Munozara mavzui hamisha taklif ko'rinishida maydonga qo'yilishi kerak, gap namalar to'g'risida ketayotgani juda ham aniq- ravshan bo'lishi uchun esa jumlamani sinchiklab tuzib olish lozim. Munozarada, hech bo'lmaganda, ikki nafar so'zlovchi va rais qatnashadi. Qatnashchi- larning biri taklifni qo'llab-quvvatlab chiqsa (munozarani ochuvchi kishi), ikkinchisi - bu taklifga qarshi bo'lib chiqadi - opponent bo'ladi. Munozaralarda boshqalar ham biror tomon tarafdori bo'lib so'zga chiqishi mumkin.

Munozara ochuvchi kishi va opponent, shuningdek qo'shimcha ravishda so'zga chiqadiganlar o'z so'zlarini oldindan tayyorlab olishlari kerak. Har bir kishi muayyan vaqt davomida, odatda, 15 daqiqa so'zlaydi, har qaysi tomondan qo'shimcha ravishda so'zga chiquvchilar ko'p deganda 2 kishi bo'lishi va ularning so'zlash vaqti 5 daqiqadan ortmasligi kerak. Munozara ochilishidan oldingi yarim soat davomida guruhning har bir a'zosi uning mavzui yuzasidan fikr bildirishi - unga qo'shilishi yoki qarshi chiqishi mumkin. Bunga 3 daqiqa beriladi, ikki marta

soʻzga chiqish ruxsat etilmaydi. Soʻzga chiquvchilarning hammasi raisga murojaat qilishadi, uning qarori uzil-kesil boʻlib hisoblanadi.

Soʻzga chiqish tartibi quyidagicha:

munozarani ochuvchi;

opponent;

munozarani ochuvchining yordamchilari, agar ular boʻlsa;

opponent yordamchilari;

sinfdagilarning soʻzga chiqishi;

munozarani ochuvchi.

Raisning asosiy vazifasi munozara tartibiga qattiq amal qilinishi va soʻzlovchilarning munozara mavzuidan chetga ketmasligini kuzatib borishdan iborat.

«Akvarium» metodi

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular sinfning oʻrtasidan joy oladilar - goʻyoki «baliq», qolganlar esa, kuzatuvchi boʻlishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10-15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi oʻrtoqlarining toʻgʻri yoki notoʻgʻri javoblari yozib borishlari kerak. Avval «baliqlar» gʻoyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar oʻz gʻoyalari taklif etishadi, shu gʻoyalardan eng yaxshisining muallifi oʻz gʻoyasini taklif etmagan oʻquvchi oʻrniga kichik guruhga oʻtadi.

Bu metodni xuddi «Zakovat» nomli oʻyin singari oʻtkazish mumkin, oʻqituvchi oldindan tayyorlab qoʻyilgan savollarni beradi, oʻquvchilar bularni 1 daqiqa davomida muhokama qilib, javob berishadi. Javoblar qanoatlanarli boʻlmasa, stolga boshqa uch nafar oʻquvchi borib oʻtiradi va oʻyin davom etadi.

2.4. Interaktiv metodlar asosida imloga doir mashgʻulotlarni tashkil etish (3-sinf ona tili darsi misolida)

O`qituvchilik kasbi kishidan bir umr ijodkorlikni, yungilikka intilib yashashni talab etadi. Olaylik, bir soatlik darsni mazmundor asar darajasig yetkazguncha qanchadan - qancha tunlarni mutoola bilan o`tkazishga tog`ri keladi.

Negaki fidoyi muallim darslikadi ma`lumotlar bilangina kifoyalanib qolmay, qo`shimcha izlanib yangiliklar kiritishga harakat qiladi. Nazariy bilimlarni amaliyotga sinovdan o`tkazib hayot tajribasi bilan uyg`un xolda boyitib boradi. Busiz ta`limda yuqori natijalarga erishib bo1`lmaydi.

Ayni chog`da ta`limda interfaol usullar, innovatsion g`oyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llashga bo`lgan talab ortib bormoqda. Shu paytga qadar o`quvchi an`anavuy ta`limda tayyor bilinlargina egallab kelgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar bolani o`z ustida ishlashga da`vat etadi. Ya`ni ha bir o`g`il-qiz muttasil o`rganib, bilimlarni tahlil qilib, to`ldirib, xatto xuklosani ham fan bo`yicha mustaqil ravishda chiqarishi lozim bo`ladi. O`qituvchi esa boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini o`taydi. Mashg`ukotlarning rang – barangligiga erishish, yangiliklar kiritb boorish ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda interfaol usul, ya`ni jamoaviy yaxlitlikka erishish qo`l keladi. 45 daqiqa davomida inkon qadar o`qituvchi fikr- xayolini bir mavzuga band etib turishga erishish mumkin. Shunda ularni mustaqil ijodiy fikrlashga yangilik yaratishga ruhlantirish oson kechadi.

Quyida interfaol usullarda 3- sinf o`quvchilarining o`zlashtirish qiyin bo`lgan “Tutuq belgisi va uning imlosi” mavzusi asosidagi texnologik xarita va dars ishlanmasini e`tiboringizga havola qilamiz.

Texnologik xarita

Mavzu	Tutuq belgisi va uning imlosi
Maqsad va vazifalari	Maqsad- tutuq belgisi va uning imlosi haqida tushuncha berish : -o`zaro hurmat hamkorlik tuyg`usini shakllantirish ; - yozma nutqda tutuq belgisining qo`llanishiga oid mashqlar bajarish;</li> </ul> <p>Vazifalar</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o`qituvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg`otish mavzu asosida bilim va ko`nikmalarini shakllantirish, kengaytirishga erishiladi.i. - mavzuga oid berilgan savol va topshiriqlarni o`uvchilar guruh holatida qay darajada o`zlashtirilishi nazorat qilinadi, ularning bilimi baholanadi.
O`quv jarayonining mazmuni	-Tutuq belgisi va uning imlosi ; - so`zlarda tutuq belgisining o`rni - tutuq belgisining ma`no farqlash vazifasi. (da`vo-davo)
O`quv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi	Metod; klaster, grammatik o`yin;</p> <p>Usul: induktiv amaliyotlar nazariyaga</p> <p>Shakl: (yozma va og`zaki) Vosita: ona tili darsligi, plakat, komyuter texnologiyasi. Nazorat: izohli diktant savol- javob Baholash. 5 bali tizim asosida
Kutiladigan natija	O`qituvchi mavzuning qisqa vaqt ichida barcha o`quvchilar tomonidan o`zlashtirishiga erishadi. O`quvchi faolligini oshiradi.fanga nisbatan qiziqish uyg`otadi. Bir darsda barcha o`quvchilarni baholaydi va x.k. O`quvchi : tutuq belgisining imlosi yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustqil ijodiy ishlarni o`rganadi, nutqini rivojlatiradi.
Kelgusi rejalar	O`qituvchi pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirib, darsga tadbqiq etadi. O`z usulida ishlab pedagogik mahoratni oshiradi.</p> <p>O`quvchi : mustqail ishlashni o`rganadi. O`z fikrini ravon bayon qila oladi. O`rganilgan mavzu bo`yicha qo`shimcha materiallar izlaydi. Hamkolikda ishlash ko`nikmasi shakllanadi.`
Uyga vazifa	41 mashq

Dars mavzusi Tutuq belgisi va uning imlosi

Dars maqsadi :

- a) ta'limiy maqsad : Tutuq belgisi va uning imlosi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish, bo'g'in va uning turlari to'g'risidaagi bilimlarni mustahkamlash ;
- b) tarbiyaviy maqsad : o'zaro hurmat, hamkorlik tuyg'ularini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash ;
- c) rivojlantiruvchi maqsad : yozma nutqda tutuq belgisining qo'llanilishi va bo'g'in ko'chirish qoidlariga oid mashqlar bajarish, yozma savodxonlikni rivojlantirish

Dars uslubi : klaster, grammatik o'yin.

Dars jihozi: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, marker, rangli kartochkalar, plakatlari va shu kabilar.

Darsning borishi:

Salomlashiladi. O'zbekiston respublikasi davlat madhiysi kuylanadi. O'quvchilarning sog'ligi, davomat aniqlandi.

Namuna ; lug'at diktant.

1/ A'lo. Da'vo, ma'nviyat, ma'rifat, a'zam, Ma'ruf, va'da, ma'qul.

2. san'at, in'om, jur'at, tal'at, mash'al

Diktant yozib bo'lingndan so'ng tutuq belgisi so'zlarning talaffuzi va imlosi haqig'i bilim va tushunchalarni mustahkamlah maqsadida shunday ish turadiigan foydalanilgani ta'kidlnadi. Tutuq belgisi so'zlarning talaffuzi va yozilishiga oid ma'lumotlar diktantini tekshirish jarayonidamustahkamlanadi.

“Tog'ri yozdim, yulduz oldim” o'yini o'tkaziladi. Bn o'yin orfografik o'yinlar irasid kiradi. Bunin icninadi Buning uchun o'quvchilarning yozishi uchun o'quvchilarning yozma uxhun bshat so'z/ tanlab olinadi. Har bir so'z uchun beshat so'z tanlab olinadi. Har bir so'z uchun bittadan ball belgilanadi. Sinf taxtasining yuqori qismida sakkiz qirrali yulduz osib qo'yilgan. Qaysi

guruh xatosiz yozsa yulduzni oladi. Sinf o`quvchilari ikki guruhga bo`linib guruhlar nomlanadi:

1 - guruh - “Ma`naviyat”

2- guruh – “Ma`rifat” deb nomlanadi.

O`qituvchi o`yin uchun tanlagan so`zlarni aytib turadi. O`quvchilar yozishadi. O`yin shu tariqa ikki uch marta takrorlanadi. Har marta o`quvchilar sinf taxtasiga chiqib yozishganda guruhlarining ballari yozib boriladi. O`yinning yakunida qaysi guruh g`olib deb topilsa, o`sha qatordagi o`quvchilarning birinchi partasiga yulduzcha qoyiladi.

Ma`naviyat gueuhi	Ma`rifat guruhi
Ra`no	ta`na
A`lo	sa`va
E`tibor	sur`at
Ma`mura	qit`a
Ma`suda	ma`no

Yangi mavzuning bayoni

Mavzu: Tutuq belgisi va uning imlosi (39-41 mashqlar)

Tutuq belgili so`zlarni bo`g`inga bo`lish va bo`g`in ko`chirishga oid ushbu qoida o`quvchilarga tushuntiriladi.

Tutuq belgili so`zlarni bo`g`inga bo`lib ko`chirishda tutuq belgisi oldingi yo`lda qoldiriladi: ***In`-om, ta`-sir, ta`-lim.***

Darslik bilan ishlash.


39- mashq

So`zlarni bo`g`inlab o`qish. Ko`chiring, Tutuq belgili bo`ginlarning tagigga chizing.

An`-ana, ma`-rifat, e`-ti-rof, ma`-qul, ta`-na, ta`-zi-ya, ma`-lu-mot, da`-vo, ma`-na-vi-yat.

Shundan so`ng bo`g`in tog`risidagi bilimlar “Bir bo`g`ini – mendanqolgan bo`g`ini sendan” Grammatik o`yini orqali eslab, takrorlab olinadi.

Ushbu o`yin o`quvchilarning diqqatini va ziyrakligini oshiradi. O`quvchi berilgan bo`g`ini o`qib unga qanday tovush yoki bo`g`in qo`shib, yangi so`z hosil qilish ustida faoliyat ko`rsatadi. O`yinining qizizqarliroq bo`lishi uchun, so`z markazida turuvchi bo`g`in qavs ichida yoki aylana ichida berilsa yanada yaxshi bo`ladi.



“Harakatli” daqiqa

Boqqa kirsam olmalar,
Qip-qizarib pishibdi.
Silkitibdi shamollar
Yerga to`p-to`p tushibdi.

Guruhlarda ishlash davom ettiriladi.

Tutuq belgili so`zlarni alifbo tartibida yozish vazifasi topshiriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez va a`lo darajada bajarsa o`sha guruh g`olib deb topiladi.

1. A`lo, ba`zan, da`vo, e`tibor, fe`l, ma`no...
2. Bid`at, da`vat, ma`lum, mas`ul, qat`iy, sun`iy...

40- mashq.

O`qing so`zlarni bo`g`inga bo`lib ko`chiring.

Ma`-na-vi-yat, ma`-ri-fat, da`-vo-gar, ta`-sir-chan, ma`-mur-chi-lik, mas`-uli-yat, ta`-mi-not, ma`-no-li, ma`-lu-mot-no-ma, san`-at-kor.

Shu soʻzlardan qatnashtirib ikkita gap tuzing.

Sanʼatkor qoʻshiq kuylash uchun sahnaga chiqdi.

Abdulla Qahhor taʼsirchan hikoyalar yozgan.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

Yangi mavzu “Dumaloq stol” metodi asosida mustahkamlanadi.

Topishmoq yozib qoʻyilgan qogʻoz varagʻi davra boʻylab oʻtkaziladi. Topshiriq savoli quyidagicha:

1. unli tovuchdan keyin tutuq belgisi kelsa, soz qanday talaffuz qilinadi? Har bir oʻquvchi oʻzining javob variantini yozib qoʻyadi va varaqni boshqa oʻquvchiga uzatadi. Hamma oʻquvchilar oʻz javoblarini yozib qoʻyishadi, keyin muhokama boʻladi: notoʻgʻri javoblar ochiriladi, toʻgʻri javoblarning soniga qarab oʻquvchilarning bilimiga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki ogʻzaki shaklda ham qoʻllash mumkin.

Darsda faol qatnashgan oʻquvchilarni ragʻbatlantirish.

Oʻquvchilarni baholash ragʻbatlantiruvchi baholash usulida amalga oshiriladi. Unga asosan, “Ofarin!”, “barakalla!”, “Sizga omad!”, yorliqlari hamda quyidagi sheʼr yozilgan kitobcha tarqatiladi.

“Haqiqiy “5”

- Yasha, bolam! – barakalla,

Koʻp tirishqoq ekansan.

Topqirlig-u zukkolikda

Hammani ham yengarsan.

Kelajakda albat sendan,

Chiqqusi zoʻr alloma.

Haqiqiy “5” olding bugun,
Bundan so'ng ham bo'sh kelma!

Uyga vazifa

41-mashq

O'qing.TUtuq belgisidan oldin kelgan unlini cho'ziqroq talaffuz qilib ,so'zlarni talaffuz qiling.

Ne'mat darsga ba'zan kechikib keladigan odat chiqardi.O'rtoqlari undan xafa bo'ldilar.Yig'ilishda Tal'at ular nomidan so'zladi.Uning so'zi Ne'matga qattiq ta'sir qildi

U darsga kechikmaslikka va'da berdi.Shundan keyin u darsga kechikmaydigan bo'ldi.

Darsni yakunlash va xulosalash.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar shaxsni o'qitish, tarbiyalash va iqtidorini rivojlantirish tamoyillarini o'zida jamlaydi, yakuniy natija ham shunga monand bo'lishini ta'minlaydi. Buning isbotini amaliyot jaroyonida ko'rdik. Termiz shahridagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabining 3-“B” sinfida tajriba – sinov ishlarini olib bordik. Tajriba natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy uslubdars o'tilganda, 78% o'zlashtirishga, noan'anaviy uslubda, interfaol metodlar asosida dars tashkil etilganda 85% o'zlashtirishga erishildi. Shundan xulosa qilsa bo'ladiki, interfaol usullar asosida dars o'tish o'qituvchi uchun foydali bo'lib, o'quvchilarni yangicha fikrlashga va erkin ijodiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

UMUMIY XULOSALAR

Biz o'z malakaviy ishimiz nihoyasida quyidagicha xulosaga keldik.

“Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir” – degan edi buyuk allomalarimizdan biri. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinfda egallangan bilimni kelgusidagi bilimlar uchun poydevor deb atasak, noto'g'ri bo'lmaydi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, qurilajak imorat ham shunchalik ko'p yil, balki asrlarga ham asqotadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim- tarbiya beruvchi o'qituvchiga juda ko'p narsa bog'liq bo'ladi. Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisi erkin fikrli keng dunyoqarashli, izlanuvchan, intiluvchan, yangiliklarni tezda ilg'ab oluvchi va innovatsion texnologiyalardan boxabar bo'lishi lozim. Shundagina u ko'zlagan maqsadiga yetishadi.

Ona tili darslarida imloviy bilimlarni takomillashtirishning samarali metod va usullarini tanlay bilish hozirgi kun tilshunoslik ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifadir.

O'quvchilarda imloviy bilimni shakllantirishni savod o'rgatish davridanoq boshlagan ma'qul. Chunki, bu bilimlar ta'limning keyingi bosqichlari uchun zarur bo'ladi. Shuningdek, imloga oid tushunchalarni faqatgina ona tili darslarida emas, balki o'qish, matematika, tabiatshunoslik, musiqa, odobnoma va boshqa darslarda ham kerakli o'rinlarda shakllantirib borilsa, ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

O'quvchilarning imloviy bilim va tushunchalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Ona tili darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, yangi metodlardan samarali, unumli va o'rinli foydalanish kutilgan natija beradi.

Chunki, yangi pedagogik texnologiyaning har bir ko'rinishi bolani fikrlashga, o'z shaxsiy munosabatlarini izhor qilishga, ijod qilishga undaydi.

Ayniqsa, "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Dumaloq stol", "Muammoli vaziyat" kabi yangi pedagogik texnologiyalardan unumli va o'z vaqtida foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning imloga oid bilimlarini aniqlashda diktant va bayonlarning ahamiyati ham juda katta. Chunki, diktant va bayonlar o'tilgan mavzular yuzasidan olingan bilimlarni yaqqol aks ettirguvchi ko'zgudir.

Tekshiruv diktantlari yozdirayotganda o'qituvchi o'tilgan mavzularga oid, imloga oid tushunchalarni aytib, ogohlantirib o'tishi lozim.

Bayonlar ham o'quvchilarning imloviy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bayonlar, diktantlardan farqli o'laroq, o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga, erkin, mustaqil fikrlay olishga, ijodiy faollikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarni hisobga olgan holda, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga quyidagicha tavsiyalar berish mumkin:

- ona tili darslarida o'quvchilarning imloga oid bilimlarini takomillashtirishning eng maqbul usul va metodlarini ishlab chiqish;
- fanlararo integratsiyani to'g'ri tashkil etish, ya'ni nafaqat ona tili darslarida, balki matematika, o'qish, musiqa, odobnoma va shu kabi o'quv fanlarini o'tayotganda ham imloga oid tushunchalarni shakllantirib borish;
- tekshiruv diktantlari va bayonlar vositasida o'quvchilarning imloga doir bilimlarini mustahkamlash, tekshirish, lozim bo'lsa, qo'shimcha darslar tashkil etish;
- an'anaviy dars o'tish tizimini inkor etmagan holda, innovatsion usullardan foydalanib, darslarni yanada qiziqarliroq, yanada samaraliroq o'tkazish va bu orqali o'quvchilarni bilimga chanqoq, keng dunyoqarashli va erkin fikrlovchi insonlar bo'lib yetishishlariga imkon yaratish;

- ona tili darslarida o'quvchilarning aylanma daftaridan tashqari, kichik "Imlo lug'ati" daftarini ham tashkil etish, bu daftarda imlosi qiyin va biroz tushunarsiz bo'lgan so'z va iboralarini qayd ettirib borish;
- o'quvchilarda imloviy bilim va malakalarni hosil qilish uchun, o'z navbatida o'qituvchi ham tinimsiz izlanish, yangiliklardan boxabar bo'lib turish, o'z ustida ishlash, o'quvchilar bilan individual va jamoaviy ishlash, ta'lim yangiliklariga oid turli konferensiya, seminar va yig'inlarda ishtirok etib borishi lozim bo'ladi.

Umuman olganda, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga rioya qilish, nafaqat o'quvchilarning, balki shu yurt tuprog'ida yashayotgan, jozibali tilimizda biyron-biyron so'zlayotgan har bir fuqaroning burchidir. Imlo qoidalari biz uchun xuddi yo'l belgilaridek bo'lishi lozim. Buning uchun o'quvchilarni bolalikdanoq bilimli, salohiyatli va aqli raso qilib tarbiyalash lozim. Shundagina, har qadamda, bot –bot duch keladiganimiz – imloviy xatoliklarning birmuncha oldi olinardi, deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.: „O'zbekiston", 2000.
2. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: „Sharq", 1997.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma'naviyat”, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: “Sharq”, 1997.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, “Sharq” 1994.
8. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti. // “Boshl. ta'l”. jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
9. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi o'quv dasturi. // “Boshl. ta'l”. jurnali. - Toshkent, 2005. - № 5.
10. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi. –Toshkent, 2010.
11. Ashrapova T., Odilova M. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent, 1984.
12. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S. A Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: „O'qituvchi", 2004.
13. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2012.
14. Xudoyberganova M., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. — T.: “O'qituvchi”, 2005.
15. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. - T.: Yangiyo'l poligraph service, 2008.

16. Roziqov O. va b. Ona tili didaktikasi.-T.: Yangi asr avlodi, 2005.
17. Qosimova K. Va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik (A. Madvaliyev tahriri ostida). – Toshkent: O'zb. mil. ens., 2006-2008.
19. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: O'qituvchi, 1992.
20. G'afforova T. va b. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T.: 2011.
21. Internet manbalari:
www.ziyonet.uz,
www.pedagog.uz,
www.google.uz,
www.terdu.uz

**Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti 4-kurs
talabasi Chorsnbiyeva Shaxzoda Boyitovnaning 5141600-
Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun “Ona tili darslarida
o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish metodlari”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar**

X U L O S A S I

Bugungi kunda xalq ta'limi hodimi oldida turgan eng muhim masala bu– yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun salohiyatli, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o'zlashtirgan kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo'ladigan ona tili ta'limida o'quvchi o'z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo'lishi va to'g'ri, savodli yoza oladigan bo'lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma- bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi ham ayni shu masalalardan biriga qaratilgan. O'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish metodlari isning dolzarb masalaga bag'ishlanganligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ish tuzilish jihatdan kirish, ikki bob, oltita qism, umumiy xulosa va adabiyotlar ro'yxatdan iborat bo'lib, ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, tanlangan metodlar va ob'yekti, amaliy ahamiyati va tuzilish jihatlari yoritilgan.

Ishning birinchi bobi “O'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirish metodlarining ilmiy–nazariy asoslari” deb nomlangan, unda o'quvchilar imlosiga qo'yilgan bilim, ko'nikma va malaka talablari hamda o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning an'anaviy va noan'anaviy usullari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobi “Imloviy bilimlarni imloga doir mashqlar va mashg'ulotlar asosida takomillashtirish” deb nomlanib, ushbu bobda ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish usullari, imloviy bilimlarni ta'limiy diktantlar va bayonlar vositasida takomillashtirish, maxsus metodlar asosida imloviy bilimlarni tekshirish usullari va 3-sinf ona tili darslarida interaktiv metodlar asosida imloga doir mashg'ulotlarni tashkil etish kabi masalalar metodik jihatdan yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ish reja bo'yicha, mantiqiy fikrlar asosida, izchil bayon qilingan. Ish mazmunan chuqur yoritilgan, yozilish uslubi sodda va tushunarli.

Talaba ishda qo'llagan usullarida biroz mavzudan chetlashishlarga yo'l qo'ygan, lekin butunlay chetga chiqish holatlari uchramaydi. Ushbu bitiruv malakaviy ish reja asosida tugallangan, umumiy xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Yuqoridagi juz'iy kamchiliklar ishning qiymatini pasaytirmaydi.

Bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim tizimi talablari darajasida bajarilgan, tarkibiy jihatdan tugallangan, metodik tavsiyalar berilgan. Shu boisdan, mazkur bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

Sh.Turdiqulov

11.05.2013